

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

XITOYSHUNOSLIK FAKULTETI

XITOIY TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida

MURATOV SIROJ SABIROVICH

**Zamonaviy xitoy tilida Guangdonghua (广东话)
shevasining xususiyatlari**

5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (xitoy tili)

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: “Xitoy tili va adabiyoti”

kafedra katta o‘qituvchisi Sultanova L.A.

Ilmiy maslahatchi: “Xitoy tili va adabiyoti”

kafedra mudiri f.f.n., dots. Karimov A.A.

TOSHKENT – 2015

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi

“Xitoyshunoslik”

fakulteti dekani

s.f.n., **I.N. Bekmuratov**

“ ____ ” _____ 20 __yil

“Xitoy tili va adabiyoti”

kafedrasi mudiri

f.f.n., dots. **A.A. Karimov**

“ ____ ” _____ 20 __yil

MUNDARIJA

| | |
|--|----|
| KIRISH | 4 |
| ASOSIY QISM | |
| I bob. Xitoy tilida shevalar haqidagi nazariy qarashlar | 9 |
| 1.1. Xitoy tilida shevalar haqidagi tushunchalar | 9 |
| 1.2. Xitoy tilida shevalarning hududiy tasnifi..... | 17 |
| II bob. Guangdonghua shevasining xususiyatlari | 24 |
| 2.1. Guangdonghua shevasining hududiy tarqalishi va uning qo'llanish doirasi..... | 24 |
| 2.2. Guangdonghua shevasining fonetik xususiyatlari | 31 |
| Xulosa | 46 |
| Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati | 50 |
| Ilovalar | |

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillikdan so‘ng xorijiy mamlakatlar bilan bo‘lgan diplomatik va iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojni ham keltirib chiqardi. Hozirgi paytda xorijiy (chet) tillaridan xitoy, yapon, koreys, arab, fors, turk, ispan, nemis, ingliz, fransuz tillarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti I.A. Karimov, 2010-yil dekabr oyida Samarqand viloyati xalq deputatlarining navbatdan tashqari sessiyasida qilingan nutqida chet (xorijiy) tillarni vatanimiz ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotidagi rolini alohida ta'kidab, ushbu o‘rinda globballashuv jarayoni kechayotgan bugungi kunda xorijiy tillarni mukammal o‘rgatishga talab va qiziqishlarning kundan kunga ortib borayotgani tabiiy hol ekanligini alohida ta'kidlab o‘tadilar¹.

Guangdonghua 广东话 – 粤语 yuè yǔ yoki 粤方言 yuè fāng yán deb ham yuritiladi. Xitoyning 7 katta dialektlaridan biri bo‘lib, eng katta va o‘ziga xos dialektdir. U Guandun provinsiyasining markaziy va g‘arbiy qismida, Guansi viloyatining janubiy va sharqiy qismlarida hamda Gongkong va Aomen hududlarida keng qo‘llaniladi. Chet elda, Janibiy-Sharqiy Osiyo, Shimoliy Amerikada yashovchi xitoy aholisi orasida qo‘llaniladi. Bugungi kunda Guangdonghuada so‘zlashuvchilar soni nafaqat Xitoyda, balki chet mamlakatlarida, xususan, G‘arb mamlakatlari, Yevropa va Osiyoda 70 mln nafardan ortib bormoqda. Guangdonghua shevasi xususida Xitoyning o‘zida ilmiy jamoatchilikda katta qiziqishlar bilan ko‘rib kelinayotgan mavzular sirasiga kiradi. Ushbu jarayonda Xitoyning yirik shevalaridan biri sifatida qayd etilgan Guangdonghua

¹ Karimov I. A. Samarqand viloyati xalq deputatlarining navbatdan tashqari sessiyasida so‘zlagan nutqi 2010 yil, dekabr.

shevasining tadqiqiga dunyo shevashunosligida muhim ehtiyoji bo‘lgan holda O‘zbekistonda ham o‘z yechimlarini kutayotgan mavzulardan bo‘lib kelmoqda. Shu sabablardan kelib chiqib, mazkur bitiruv malakaviy ishimizning mavzusi sifatida aynan shu mavzuda to‘xtalishga qaror qildik.

粤语 yuè yǔni Guangdonghua ifodalab keladi, u Gongkong va Aomenda so‘zlashiladigan shevalar bilan deyarli bir xil. Xitoy Xalq Respublikasiga asos solinganidan so‘ng mamlakatda katta kuch bilan davlat rasmiy tili Putonghua 普通话 Putonghua targ‘ib etila boshlandi. Turli darajadagi o‘quv muassasalari bu ruhda faoliyat olib borishar edi, ustiga ustak kinofilmlar, televideniye va axborot ko‘rsatuvlarida ham 普通话 Putonghua qo‘llanila boshlandi, 粤语 yuè yǔ yoyilgan hududlardagina esa 普通话 Putonghua 广东话 Guangdonghua bilan birgalikda qo‘llanilgan. Xalqning katta qismi ham boshlang‘ich darajada 普通话 pǔ tōng huàni o‘rgandi. 80-yillarga kelib ochiq siyosatning amalga oshirilishi bilan odamlar mamlakatning turli qismlaridan asta-sekinlik bilan Guanchjou, Shenjen, Juhai va boshqa 粤语 yuè yǔ tarqalgan hududlarga kela boshlaydilar, ularning katta qismi 粤语 yuè yǔ tarqalgan hududlarda 普通话 Putonghuani yoyishda sababchi bo‘ldilar. Lekin biz shunga ahamiyat berdikki, guangdonghuada so‘zlashadigan odamning 普通话 Putonghua bilishining o‘rtacha darajasi yuqori hisoblanmaydi, bundanda muhimroq tomoni shundaki, 普通话 Putonghuani anglay olmas edi ham. Bu, albatta, e‘tibor qaratishga arzigulik masaladir. Guandun viloyatining deyarli barcha hokimiyatlari 普通话 pǔ tōng huàni targ‘ib etish masalalariga jiddiy e‘tibor bera boshladi va jamoat joylarida iloji boricha 普通话 Putonghua ishlatila boshlandi. Agar shevada so‘zlovchi xalq vakili bo‘lsa, ijtimoiy munosabatlarda 普通话 Putonghuada gaplashishi lozim bo‘ldi. Boshqa tomondan butun mamlakatdan kelayotgan mehmonlar guangdonghuani tushunmaydilar, ammo shunday bo‘lsada, bir necha gap o‘rganib ketishni xohlaydilar. Bu esa ularning o‘zaro muloqoti jarayonini muammoli munosabatlarini osonlashtiradi, Lekin 1997-yilga kelib 粤语 yuè yǔ yoyilgan hududlarga yanada ko‘proq odam

kela boshlaydi, yuqorida keltirilgan ikki sohadagi ehtiyojni qondirish uchun mahalliy aholining 普通话 Putonghuani yanada yaxshiroq bilishi uchun qo‘llanmalar yaratishga ehtiyoj tug‘ildi, shu bilan birga 粤语 yuè yǔda so‘zlashmaydigan insonga 广东话 Guangdonhuani o‘rganishiga sharoit yaratib berildi. 广东话 Guangdonhuada so‘zlashuvchi kishining 普通话 Putonghuani o‘rganishi nisbatan oson, ammo 普通话 Putonghuani bilgan kishi 广东话 Guangdonhuani o‘rganish borasida turli qiyinchiliklarga duch keladi. Shu fikrdan kelib chiqqan holda bizning bitiruv malakaviy ishimizning kirish qismi 广东话 Guangdonhua to‘g‘risida umumiy ma’lumotni berib, 广东话 Guangdonhuani umuman bilmaydigan hamda u haqida umuman taassurotga ega bo‘lmagan kishiga o‘quv qo‘llanma sifatida xizmat qiladi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Shevalarning nazariy asoslari va aynan shevalarni tadqiq etish dunyo shevashunosligida keng ko‘lamda amalga oshirilib kelinayotgan ishlardan biri bo‘lib kelmoqda. O‘zbek shevashunoslaridan: f.f.d. prof. A.B. Jo‘rayev², I.N. Bekmuratov³, Sh. Shozamonov⁴. G‘arb shevashunos olimlaridan Whitaker K.P.K⁵, Oakeley R.H⁶, Cowles R.T.⁷. Rus sinologlaridan: Янкивер С.Б.⁸, Савенкова М.С.⁹. Xitoy shevashunoslaridan 欧阳觉亚 ōu yáng ji ào yǎ¹⁰, 李如龙 lǐ rú lóng¹¹ larning ilmiy ishlarida shevalar haqida umumnazariy

² Джураев А.Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. Ташкент. Фан 1991г.

³ I.N. Bekmuratov Xitoy tili dialektologiyasi TDSHI 2010y.

⁴ Sh. Shozamonov. Xitoyda til vaziyati TDSHI 2013y.

⁵ Whitaker K.P.K Cantonese Sentence Series. London 1954y.

⁶ Oakeley R.H. Rules for Speaking Cantonese 1953y.

⁷ Cowles R.T. Cantonese speakers dictionary. Hong Kong 1965y.

⁸ Янкивер С.Б. Гуанчжоуский диалект китайского языка. Москва “Наука” 1987 г.

⁹ Савенкова М.С. “Путунхуа и диалекты”

¹⁰ 欧阳觉亚. 普通话广州话的比较与学习. 北京市 “中国社会科学出版社” 1993年 (Ou Yang JueYaning «Guangdonghuani Putonghua orqali taqqoslab o‘rganish») Pekin “Xitoy jamiyat va fan nashriyoti” 1993

¹¹ 李如龙 “中国方言学” 高等教育出版社 北京 2001年 –Li RuLongning “Xitoy dialektologiyasi” Pekin “Oliy ta’lim nashriyoti” 2001

hamda guangdonghua shevasini o'rganish sohasida tadqiqot natijalari keltirilib o'tilganligi kuzatiladi.

Ular tomonidan olib borilgan tadqiqotlarni qisqacha izohlaydigan bo'lsak, f.f.d. prof. A.B. Jo'rayev tomonidan yozilgan "Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива" nomli dissertatsiyasida shevashunoslik umumnazariy jihatlarini keng ko'lamda yoritib berilgan, I.N. Bekmuratov Sh. Shozamonov bilan hammualliflikda Xitoy shevalarining tasnifi haqida yozilgan "Xitoyda til vaziyati" TDSHI 2010 qo'llanmasi muhim o'rin kasb etadi. Янкивер С.Б.ning Гуанчжоуский диалект китайского языка. Москва "Наука" 1987 г. kitobida Guangdonghua shevasining Xitoy shevalari orasidagi o'rni uning Putonghuadan fonetik, leksik hamda grammatik jihatlaridan farqlanishini keng yoritilib berilgan. 欧阳觉亚. 普通话广州话的比较与学习. 北京市 "中国社会科学出版社" 1993 年 (Ou Yang JiaoYaning « Guangdonghuani Putonghua orqali taqqoslab o'rganish») Pekin "Xitoy jamiyat va fan nashriyoti" 1993 kitobida ham Guangdonghuaning fonetik, leksik hamda grammatik jihatlarini o'rganilib, ularni Putonghua bilan taqqoslash ishlari amalga oshirilgan. Yaratilgan asarlar o'z davri uchun ahamiyatli bo'lib, keyingi izlanishlar uchun asos bo'lib xizmat qildi. Ularning asosida qator izlanishlar yo'lga qo'yilib, xitoy shevalarini o'rganishda qator tadqiqotlar va himoyalar amalga oshirildi.

Bitiruv malakaviy ishning obyekti. Xitoy tilining shevalari.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti. Xitoy tilining 广东话 Guangdonghua shevasining zamonaviy bosqichdagi rivojlanishi va uning fonetik xususiyatlari.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati. Xitoy tilini o'rganishda xitoy tili leksikologiyasi kurslarida, turli xil seminarlarda qo'llanma vazifasida hamda qo'shimcha ma'lumot sifatida qo'llanilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi. Hozirgi zamon xitoy tilidagi shevalaridan biri Guangdonhua shevasini o‘rganish. Xitoy tili janubiy shevasi Guangdonghuaning fonetik xususiyatlarini o‘rganish.

Bitiruv malakaviy ishining vazifasi. Xitoy tili shevalari haqida turli nazariy qarashlarni o‘rganish. Xitoy tili Guangdonghua shevasini umumiy qabul qilingan davlat tili Putonghua bilan fonetik va leksik jihatdan taqqoslash.

I bob. Xitoy tilida shevalar haqidagi nazariy qarashlar

1.1- Xitoy tilida shevalar haqidagi umumnazariy tushunchalar

Xitoy tili boshqa tillardan ko`p shevaliligi bilan farqlanadi. O`tgan tarixiy davr ichida xitoy shevalari to`xtovsiz taraqqiy etdi. Uning taraqqiyot tarixi va hozirgi davrini tushunish va izohlashda sheva, dialekt, lahja degan terminlar qo`llanadiki, ularning lug`aviy va terminologik ma`nolarini bilish albatta zarurdir. Sheva forscha «ravish», «yo`sin» degan ma`nolarni bildirib, fanda biror tilning o`ziga xos leksik, fonetik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan kichik qismini anglatadi. Dialekt so`zi grekcha bo`lib, sheva degan ma`noni anglatib, ma`lum til xususiyatlari jihatidan o`xshash bo`lgan shevalar yig`indisini bildiradi. Dialekt – (yunoncha “dialektos”- sheva, lahja) – ma`lum bir qabila, xalq yoki millatning tarkibiy qismlari tilidir. Dialektlar umumxalq tilining quyi bosqichi sanalib, shevaga nisbatan kengroq ma`noga ega, tilning kichik bo`lagi hisoblangan shevalar yig`indisidan tarkib topadi. Masalan, yuz, qirq, saroy, nayman, mang`it, qoraqalpoq, ming, faloyir, burqut kabi shevalar birlashib, o`zbek tilining qipchoq dialektini tashkil etadi.¹²

Dialektlar orasidagi farqni fonetika, grammatika va lug`at tarkibida ko`rish mumkin. Lahja arabcha so`z bo`lib, u ham, ravish, tarz, yo`sin, sheva ma`nolarini bildiradi. Tilshunoslikda dialektlarga ta`sir ko`rsatadigan hodisa sifatida “sleng”, “jargon” va “argolar” ko`rsatilib o`tiladi. “Sleng”, “jargon” va “argo” atamalarining boshlang`ich ma`nolarini aniqlash uchun ularning dastlabki manbalariga e`tiborni qaratish zarur deb hisoblaymiz. “Jargon” va “argo” atamalari fransuz tilidan, “sleng” esa ingliz tili orqali lug`atga kirib kelgan¹³. Argo (frans. argot) sotsial va kasb bo`yicha bo`lingan guruhlar va birlashmalar nutqi. Jargondan farqi shundaki, argo kasblarga mustahkam o`rnashgan bo`ladi. Qo`shiqchilar, ovchilar, sayyoh savdogarlar va boshqalar misolida ko`rish mumkin. Tarixan sayyoh savdogarlar, hunarmandlar nutqidan kelib chiqqan. Qo`polroq aytganda

¹² M.T. Irisqulov „Tilshunoslikka kirish“ Toshkent „Yangi asr avlodi“ 2009 y.

¹³ Дюбуа Ж., Эделин Ф., Клинкеберг Ж. Общая риторика. М.: Прогресс, 1986. – 391 с.

argo – salbiy jihatga ega bo‘lgan guruhlarga tegishli – o‘g‘rilar, nochorlar va darbadarlar tili hisoblanadi. Argo mustaqil tizimni tashkil qilmaydi, jargon hamda og‘zaki nutq bilan bog‘liq bo‘lgan holda maxsus leksik qatlam – slengni tashkil qiladi.

Argotizmlar (frans. argotisme) sotsial va kasbiy guruhlarning og‘zaki nutqidan o‘zlashgan so‘z va iboralardir. Aniq tusni saqlab qolgan holda sleng hamda soda nutqda semantik boyitilgan holatda ishlatiladi. Argotizmlar zamonaviy adabiyotda yozuvchilar hamda tarjimonlar tomonidan qahramonni realistik nutq xarakteristikasi va tilning sodda nutq, jargon orqali ta’riflashda qo‘llaniladi. Argotizmlar g‘arb mamlakatlarida keng qo‘llaniladi, ayniqsa, AQShda¹⁴.

Amerikalik tadqiqotchi Roborning kichik lug‘atida argo atamasi umum qo‘llaniladigan atama sifatida “jinoiy muhit tili”, lingvistik atama sifatida esa ma’lum ijtimoiy guruh tomonidan ishlatiladigan texnikaga oid bo‘lmagan leksika” sifatida berilgan. Argoning etimologik kelib chiqishi – “corporation des jeux” – “qora niyatli kishilar jamoasi” sifatida izohlangan¹⁵.

Rus tilida yozilgan sovet ensiklopediyasida shunday keltirilgan: Jargon (frans. jargon, tahminan gallo – roman tilidan gargone - savsata) sotsial dialekt; umumiy tildan maxsus leksikasi jihatdan farq qiladi ammo o‘z fonetik va grammatik tizimi bo‘lmaydi. Asosan maktab o‘quvchilari, talabalar, va turli soha guruhlarida qo‘llashadi. Bu jargonlarni kuchli rivojlangan va yetarlicha aniq bo‘lgan xarakterga ega professional tillar bilan, texnika sohasi hamda “o‘g‘rilar jargoni”, jamiyatning jinoiy jihatga ega elementlari bilan aralashtirib yuborish kerak emas.

Jargon leksik va stilistik jihatdan har xil toifali bo‘ladi, kundalik leksikada mustahkam emasligi va o‘zgaruvchanligi bilan bir-biridan farq qiladi. Jargon adabiyotga qahramonlarga og‘zaki xarakteristika berish orqali kirib keladi¹⁶.

¹⁴ Большая советская энциклопедия. –М., 1972., 531-532 с.

¹⁵ Morris C.W. Writings on the general theory of sings. – The Hague: Mounton. 1971.-280 p.

¹⁶ Большая советская энциклопедия. –М., 1972. С-332

Brokgauz va Efronlar bu tushunchaga bu tushunchaga yangilik kiritadi; “buzilgan nutq”, shuningdek, jargonlar ba’zan ma’lum maqsadlar uchun, masalan, o’g’rilar jargon, kambag’allar va hokazolar uchun o’ylab chiqiladi. Ma’lum maqsad deganda so’z guruhining ajratilishi ko’zda tutiladi va u umumiy madaniy fonddan mahrum¹⁷.

Sleng atamasi leksikologiyada birmuncha kechroq paydo bo’ldi. Og’zaki nutqni o’rganish jarayonida “jargon” va “argo” tushunchalari, tarixiy nuqtai nazardan, undan foydalanuvchi guruhlarning chegaralanganligi va leksik birliklar semantikasining ajratilganligini ko’ramiz. Shu bilan bir vaqtda og’zaki nutq til muhiti normalaridan farqli va juda ko’p sonli kishilarni birlashtiruvchi muhit sifatida mavjudligi ham ma’lum bo’ldi. Aynan shu tushuncha sleng nomini oldi. Sleng deganda biz, odatda, og’zaki nutq turlaridan birini tushunamiz. Sleng o’z navbatida argo va jargonga xos birliklarni hamda ularning ma’nolarini metaforik jihatdan o’zgartirib va kengaytirib o’zlashtirishi mumkin.

Shunday qilib sleng, ko’p tadqiqotchilarning fikricha, jargon va argodan farqli o’laroq, ikkinchi darajali shakllar to’plami bo’lib, o’zlashgan birliklar ehtiyojga qarab moslashtiriladi. Ba’zilar slengni so’z o’yini sifatida ishlatilishiga katta ahamiyat berishsa, O.I. Ермакова fikricha, “Har qanday nutqiy ekspressiv birlik slengga aylanishi bilan neytrallashadi va o’ziga xos semantikaga ega bo’ladi. Sleng so’zining ma’nosi “og’zaki nutq” va “so’zlashuv” tushunchalariga yaqindir”¹⁸.

Dialektologik termin sifatida qadimdan xitoy tilining taraqqiyotida asos bo’lgan sheva va dialektlarning eng yirik guruhini anglatadi. Xitoy tilida shevalar 方言 termini bilan yuritiladi. Yang Xunning “方言” lug’atida, Dialekt deb mamlakatning siyosiy ma’muriy yoki fizik-geografik hududida so’zlashiladigan xitoy tilining turli xil ko’rinishlari deb tan olingan. Masalan, mazkur lug’atda Han

¹⁷ Швейцер А.Д. Современная социоллингвистика (Теория, проблемы, методы). –М.: Наука. 1978г с.- 117-118

¹⁸ Ермакова О.И. Отражение особенностей речевого поведения пользователей компьютерных сетей в письменной форме компьютерного жаргона // Труды международного семинара. “Диалог 2000 ” по компьютерной лингвистике и ее приложениям.

davri hududlarining 14 ta katta dialektlar soʻzlari kiritilgan boʻlib, ulardan eng muhimi, Chjou podsholigi davri dialektlari: Sin, Szin, Chi, Chu, Vu, Yue lardir ?

Xitoy dialektologiyasining tilshunoslik va boshqa fanlarga aloqadorligi.

Xitoy dialektologiyasi geografiya fani bilan uzviy aloqador, yaʼni har bir sheva haqida maʼlumot toʻplanganda, shu sheva vakillari joylashgan hududning koʻlami, aholining miqdori, iqlimi va boshqa maʼlumotlar ham toʻplanadi, yaʼni geografik muhiti ham yoritiladi. Shuningdek, xitoy dialektologiyasi xitoy xalqi tarixi, adabiyoti, etnografiyasi, sanʼati fanlarining maʼlumotlariga ham tayanadi va ular uchun boy material beradi. Xitoy dialektologiyasi xitoy tili va adabiyoti oʻqituvchisi uchun ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga molik boʻlgan fandır.

Xitoy shevalarini oʻrganish metodlari. Xitoy shevalari hozirga qadar xitoy adabiy tiliga 普通话 ga qiyosan oʻrganib kelindi va bunda tavsifiy va qiyosiy metoddan foydalanilgan. Bu metodda shevalarning fonetik, leksik va morfologik xususiyatlari keng miqyosda oʻrganildi hamda boy material toʻplandi. Xitoy shevalarini oʻrganishda XIX asrning oxirlarida paydo boʻlgan qiyosiy-tarixiy metoddan ham foydalanilgan. Bu metodga koʻra xitoy shevalari materiallari Yang Syunning “方言” (Dialektlar) lugʻatidan olingan. Yang Syun lugʻati nafaqat qadimgi xitoy dialektlarini aniqlashga, balki ular amal qilgan hududlarni bilishga ham yordam beradi. Unda Han va Chjou, yaʼni gʻarb dialektlari sharq dialektlari bilan solishtirilgan ³

Lekin bu metod asosiy metod hisoblangan emas, balki tahlil talab oʻrinlardagina va ayrim til tarixiga oid maqola va asarlarda uchrab turadi. Shuningdek, xitoy dialektlari fonematik tizimini tizimli metod orqali oʻrganish ham tajriba qilindi. Jumladan, xitoy tilidagi til birliklarini fonologik tizimini sistem jihatdan tahlil qilingan ishlar yuzaga kelmoqda.

Har bir dialektning lingvistik xaritada oʻrni uning mahalliy va lingvistik xususiyatlari bilan aniqlanadi. Dialektning anʼanaviy mahalliylashuvi siyosiy maʼmuriy va fizik-geografik jihatlarda oʻtkaziladi. Aytish mumkinki, har bir maʼmuriy yoki geografik hududda odamlar turli dialektlarda soʻzlashadi va bu

dialektlar qo'shni hudud dialekti bilan farqli yoki o'xshash bo'lishi mumkin. Shuningdek, ta'kidlab o'tish joizki, dialektlar tugash chegarasi hududiy birliklar chegarasi bilan bir xil. Xitoy tili hududi turli geografik o'lchamlarga ega, turli dialektlarda gaplashiladigan birliklardan tashkil topgan. Shuning uchun ham bu dialektlar hudud nomi bilan bir xil ataladi. Dialektlarda gaplashadigan joy nomlari va o'lchamlari vaqt o'tishi bilan o'zgargan. “方言” lug'atida Yang Syun dialektlarni Chjou va Han sulolalari davri landshaft birliklari nomi bilan atagan. Har bir viloyatning dialektik strukturasi shakllanishi nafaqat tabiiy landshaft, balki etnik tarkib va aholining hududiy taqsimlanishiga ham bog'liq. Xitoy demografik holatiga ko'ra rivojlanishning ikki xil qarama-qarshi yo'nalishi mavjud. Bir tarafdin aholining barqarorligi, ya'ni xitoy oilalarining ko'pchiligining yillar davomida bir hududda muqim yashashidir. Faqatgina ikki etnik guruhni aytish mumkinki, ular boshqalardan o'z mobilligi bilan farq qiladi: o'z dialektida so'zlashadigan Xakka va janubiy Min dialektida so'zlashadigan FuSzyan viloyati aholisidir. Xakka aholisining asosiy etnik va dialektik hududi bu Guandun (markazi MeySyun) viloyati shimolida joylashgan tog'lik hudud hisoblanadi. Lekin Xakka-xitoyliklar butun janubiy Xitoy bo'ylab tarqalgan, ular Tayvanda ham va janubiy suvlar mamlakatlarida ham yashaydilar¹⁹. Min dialektlari tarqalgan asosiy hudud bu FuSzyan viloyati janubiy qismi bo'lib, amalda bu dialektida Guangdong viloyati sharqiy qismi ham Tayvan aholisining ko'pchilik qismi va Janubiy suvlar aholisining xorijiy qismi so'zlashadi. Boshqa tarafdin esa – bu ko'chishga moyillikdir. Siyosiy yoki tabiiy ofatlar (majburiy) tufayli, yanada yaxshiroq tabiiy sharoitga o'tish (ixtiyoriy).

Aholi migratsiyasi natijasi sifatida turli migratsiya oqimlari vakillarining bir hududda birgalikda yashashi kelib chiqdi. Yuqorida aytib o'tilganidek, aholining siyosiy va tabiiy ofatlar natijasida uzoqqa (shimoldan janubga) migratsiyasi Xitoy tarixida ikki marta kuzatilgan: IV-VI va XI-XII asrlarda. Bu davrlar orasida aholi migratsiyasi hududlar ichida va hududlararo bo'lgan. Tashqi bosqinchilar, ichki

¹⁹ Софронов М.В. Китайский язык и китайское общество Москва 1979 г.

urushlar, tabiiy ofatlar va qo'zg'alonlar natijasida katta-katta hududlar vayron bo'lgan va bu bo'sh hududlarga qo'shni viloyat va uezdlardan yangi aholi ko'chib kelgan. Shuning uchun ham Xitoyda o'z dialektini saqlab qolayotgan turli migratsiya oqimlari vakillarini uchratish mumkin. Viloyatlar chegaradosh hududlari turli taraflardan kelgan chegaradosh qo'shnilar bilan to'la bo'ladi va ular o'z ona dialektlarida so'zlashadilar. Turli migratsiya vakillari aloqasi natijasida ikki hil holat yuzaga keladi. Birinchidan barcha dialektlarning qorishish hodisasi bo'lsa, ikkinchidan dialekt vakillari o'zlarining tub dialektini saqlab qoladi. Bundan tashqari shuni ta'kidlab o'tishimiz lozimki, shahar dialektlarining alohida turi bo'lib tarixiy poytaxtlar dialekti hisoblanadi. Ya'ni qadimgi birinchi Xitoy poytaxtlarining ko'chishi natijasida yuzaga krelgan dialektal ahvol yuzasida bizgacha, afsuski, ma'lumot yetib kelmagan, lekin xitoyning oxirgi ikki shahri (Nankin va pekin) dialektlari haqida yetarlicha ma'lumotlar mavjud. Masalan, zamonaviy Pekin dialektining shakllanish jarayoni XVIII asrga borib taqaladi. Bu Paytda Sin manchjur sulolasi pekinni o'z poytaxti deb e'lon qilgan. Pekinning xitoylik aholisi yoki quvib chiqarilgan yoki shaharning janubiy qismiga ko'chib o'tkazilgan. Uning shimoliy qismi manchjurlarga tegishli edi. Pekinning tub aholisi shimoliy Pekin dialektida so'zlashgan. Ta'kidlanishicha, aynan ularning dialekti manchjurlar tomonidan o'zlashtirilgan, degan qarashlar mavjud.

Zamonaviy xitoy dialektologiyasi 1919 yil 4-may harakatidan boshlangan. Xitoy tili shevalarini ekspeditsiyalar yordamida tadqiq etishga folklor tadqiqodchilari asos solib ular sheva xalq mahalliy madaniyatini muhim qismi ekanligini birinchi bo'lib anglab yetdilar. Folklor tadqiqodlarining vazifalaridan biri xalq qo'shiqlarini yozib olishdan iborat edi. "Qo'shiqlar – bu shevalar adabiyotidir deb yozgan edi Shen SzyaShi – qo'shiqlarda uchraydigan so'zlar u yoki bu darajada ular mavjud bo'lgan joylar izini o'ziga olgan. Agar biz ularning mazmuni, kayfiyati va kuyini o'rganib shevasini e'tiborga olmasak, ko'p narsani yo'qotgan bo'lamiz. Shu sababli shevalarni tadqiq etish folklor tadqiqodlarining zarur sharti ekanligini etirof etish lozim". Folklor tadqiqodlarini uyushtirishga yordam berish maqsadida 1924-yilning yanvar oyida Pekin universitetida

“Shevalarni o‘rganish jamiyati” tashkil etildi. Shevalarni tadqiq etish to‘g‘risida Shen SzyanShi shunday deb yozadi: “Umuman olganda shevalarni tadqiq etishning zamonaviy uslublari eskilaridan uch jihati bilan farqlanadi:

1. Avvalgi tadqiqodlar ko‘z yordamida yozma belgilariga, zamonaviy tadqiqodlar esa – fonetikasiga qaratilgan.
2. O‘tmishda tadqiqodlar uzuq-yuluq bo‘lgan, hozirda esa qadimgi va zamonaviy shevalar rivojining yo‘nalishi va ularning areallarga taqsimlanishini aniqlash maqsadida tizimli tarixiy va qiyosiy tadqiqotlar vaqti keldi.
3. O‘tmishda shevalar ustidagi tadqiqotlar o‘z-o‘zicha amalga oshirilgan bo‘lsa, bugungi kunda yangi tadqiqot asoslari dialektologiya bilan bevosita yoki bilvosita bog‘liq bo‘lgan boshqa fan tarmoqlari – fonetika, tilshunoslik, yozuv nazariyasi, psixologiya, antropologiya, tarix, folklor bilan birgalikda o‘rganiladi”.

“Shevalarni o‘rganish jamiyati” tashkil etilganidan so‘ng shevalarni o‘rganish borasida ekspeditsiyalar uyushtirila boshlandi. Jumladan 20- va 30-yillarda Xitoy Fanlar Akademiyasining o‘sha davr asosiy lingvistik tadqiqotlarini jamlagan Tarix va Filologiya Instituti 6 ta yirik keng ko‘lamli dialektologiya ekspeditsiyalarini amalga oshirdi. 1928-1929 yillarda Guandun va GuanSi provinsiyalari shevalarini tadqiq etgan Janubiy Xitoy ekspeditsiyasi shular jumlasidan o‘rin olgan.

Xitoy tili shevalarining yalpi tadqiqotini 1957-yili tugallash rejalashtirilgan edi. Ammo ma’lum sabablarga ko‘ra katta hajmli ishlarning bajarilishi ancha vaqtga cho‘zilib ketdi. O‘sha vaqt dala tadqiqotlari asosidagi hisobotlar va ilmiy ishlar o‘tgan asrning 80-yillariga qadar chop etildi. Shevashunoslik tadqiqotining dastlabki yakunlari 60-yillar boshida Yuan SzyaHua va uning hodimlari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda berildi. 1962-yili ular xitoy yozuvi belgilarining shevalarda o‘qilishiga oid o‘zlarining “汉语方言词汇” lug‘atlarini

va 1964-yili xitoy tilining 17 ta shevasi bo'yicha “汉语方言词典” nomli morfemalar lug'atini nashr etdilar. Yuan SzyaHua “Zamonaviy xitoy tili shevalari tadqiqoti”ni nashrdan chiqarib, unda shevalar ustida 50-yillarda olib borilgan tadqiqotlarni dastlabki yakunlari berilgan edi. Bu ilmiy ishning qisqacha variant Moskvada rus tilida 1965-yilda “Xitoy tili shevalari (dialektlari)” nomi ostida chiqdi.

Xitoy tili shevalariga oid tadqiqotlar materiallari birinchi marta nashr etilganidan so'ng nafaqat xitoylik lingvistlar, balki chet ellik tilshunoslar ham uning izohi bilan shug'ullana boshladilar. Jumladan, 60-yillarda Rossiyada Xitoy tili shevalari muammosi bilan С.Е. ЯХОНТОВ shug'ullanar edi. U materiallari nashr etilgan shevalar fonetik belgilarining xaritalarini tuzib, ularning original tasnifini taqdim etdi. 80-90 yillarda О.И. Завялова “Xitoy shevalari va milliy tili”dagiga nisbatan areal va tarixiy jihatdan kengroq ko'lamda o'rganishni davom ettirdi. Uning ishi natijalari 1996-yili nashrdan chiqqan “Xitoy tili shevalari” monografiyasida bayon etilgan.

AQShda J.Norman nashrdan chiqqan ma'lumotlar va o'zi uyushtirgan ekspeditsiya materiallari asosida Min shevalari va xitoy tili shevalariga oid umumiy ocherk chop ettirdi. Guangdonghua shevalari bo'yicha olim Yuy AyTsining tadqiqoti nashrdan chiqqan. HuiChjou va Vu shevalari yuzasidan R. Simmonsning ilmiy ishi chop etildi.

Xitoydan tashqaridagi tilshunos olimlarning faoliyati natijasida 70-80 yillarda xitoy tilining shimoliy hamda janubiy shevalarining juda muhim ma'lumotlariga ega bo'lindi. O'tgan asrning 70-yillarning oxiri – 80 yillarning boshlarida Xitoy dialektologiyasining asosiy vazifasi shevalarga oid yig'ilgan materialni tahlil qilish va Xitoy lingvistika atlasini yaratish maqsadida shevalar tasnifiga aniqliklar kiritishdan iborat bo'ldi. Shevalar yuzasidan yangi tadqiqotlar boshlanishiga Din ShenShu va Li Chjunlar asos solishdi. Ya'ni ular tomonidan fonetikaga oid yangi ma'lumotlar yig'ish uchun mo'ljallangan so'rovnomalar ishlab chiqildi. 50- yillarda to'plangan ma'lumotlarni tekshirish va ularga aniqlik kiritish uchun butun

mamlakat bo‘ylab 80- yillar boshidan ilmiy va ta’lim muassasalari kuchlari bilan shevalar xususidagi ilmiy ishlar qaytadan boshlandi. “Xitoy tillari atlası” ustidagi ishlari ham aynan ana shu vaqtdan boshlandi. Shundan so‘ng chop etila boshlagan maqolalar ham aynan shu mavzu muhokamasiga bag‘ishlangan edi. Avstraliya tilshunoslari bilan birgalikda ishlab chiqilgan “Xitoy tillari atlası” ikki nashrda, 1983- va 1987-yillarda chiqdi. Atlasda aynan xitoy tili shevalari, shuningdek Xitoy xalqlari tillarining ham xaritalari keltirilgan. Unda xitoy tili shevalarining asosiy guruhlari 16 ta xaritada joylashtirilgan. Ularning bittasi mamlakat tashqarisidagi xitoy tili shevalariga bag‘ishlangan. “Xitoy tili atlası” chop etilganidan so‘ng leksika xitoy tili shevalarining asosiy yo‘nalishi bo‘lib qoldi. Asr boshiga kelib “Zamonaviy xitoy tili shevalarining katta lug‘ati”ning 41 ta nashri va “Xitoy tili shevalarining katta lug‘ati” ning besh jildi bosmadan chiqdi.

1.2. Xitoy tilida shevalarning hududiy tasnifi

普通话 Putonghuani ommalashtirish, uning ishlatish ko‘lamini kengaytirish va barcha tomondan tan olingan bo‘lsada, zamonaviy shevalarning o‘rni hali hanuz turg‘undir.

Lingvistikada ko‘p uchraydigan savol “Til yoki sheva?”, ayniqsa, xitoy tili uchun mos keladi. Lingvistik nuqtayi nazardan dialektlarning ko‘pi til talablariga javob bermaydi. Shevalarda umuniy yozuv tili mavjud emas, aynan shu tarafdin ular sheva sifatida ko‘riladi. Yozuv tili grammatik jihatdan 普通话 Putonghuaga yaqin bo‘lgani uchun, ko‘pgina xitoyliklar uni “haqiqiy” xitoy tili deb bilib, qolganlarini sheva sifatida qabul qilishadi. Bu borada siyosiy qarashlar ham katta ahamiyat kasb etadi.

Shevalar bir-birlari bilan fonetik, leksik va qisman grammatik tomondan farq qiladi. Ammo ular grammatikasi hamda so‘z tarkibi asoslari yagonadir. Turli

shevalar vakillarining o‘zaro munosabatlarining vositasi bo‘lib 普通话 Putonghua hisoblanadi.

Bugungi kunda jadal sur‘atlar bilan rivojlanib kelayotgan davlat – Xitoy Xalq Respublikasining o‘zida 100 tadan ortiq shevalarni mujassamlashtiradi. Xitoy shevalari ko‘p mamlakat hisoblanadi. Singapur, Tayvan, Vyetnam, Malayziya hududlaridagi yashovchi xitoy aholisi so‘zlashadigan shevalar ham ularga kiradi. Guan hua Shimoliy Xitoy hududida tarqalgan. Ushbu hududga Shimoliy Xitoy provinsiyalari hamda Sichuan, Yunnan, GuiChjou va Guansi provinsiyasining shimoli-g‘arbiy qismi kiradi. Bu hududda mamlakatni xitoy aholisining 70% dan ortiq qismi istiqomat qiladi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, zamonaviy xitoy tili shevalari bugungi kunda ikkita yirik dialektal guruhni tashkil etadi: shimoliy shevalar guruhi va janubiy shevalar guruhi. Jumladan, shimoliy shevalar guruhi quyidagi kichik guruhlarga bo‘linadi.

Shimoliy sheva: Xuangxedan shimolda joylashgan Jiangsu va Anxoy o‘lkalari qismi, Shandun viloyatining g‘arbiy va markaziy qismi, Xebey, Xenan o‘lkalaridan tashkil topgan arealda tarqalgan. Bundan tashqari Shimoliy, Sharqiy Xitoy va Ichki Mo‘g‘ulistonning Sharqiy qismida tarqalgan.

Sharqiy Shandun shevasi: (Izyaodung – xitoycha nomi) – Shandun yarim orolini sharqiy qismida tarqalgan.

Shimoliy-g‘arbiy sheva: Shansi, Shensi, Gansu, Ningsya-xuey avtonom hududlar, ichki Mo‘g‘ulistonning g‘arbiy qismida, Xebey viloyatining g‘arbiy qismida, Xenan o‘lkasining shimoliy qismida tarqalgan.

Janubiy-g‘arbiy sheva: Sichuan, Yunnan, Guichjou, Guansi provinsiyasining shimoliy-g‘arbiy qismi, Xunan viloyatining g‘arbiy qismi, Xubey viloyatining markaziy va g‘arbiy qismida tarqalgan.

Yanszi-Xuanxe daryolar oralig‘i shevasi: Anxoy va Szyangsu o‘lkalari, Xuanxedan janubda, Yanszi daryosining ikkala qirg‘og‘ida Szyuzyang (Szyangsi viloyati) va Chjeszyang (Izyangsu viloyati) oralig‘ida tarqalgan.

Chu shevasi: bu yerlarda avval joylashgan qadim-Xitoy podsholigi nomi bilan ataladi, Yanszining shimoliy sohilida, Xubey o‘lkasining sharqiy qismida tarqalgan.

Tun-Xuey subdialekt shevasi: Izyan-Xuay daryo oralig‘i shevasi tarkibida ajratib turadi. Uning ichida ikki guruh farqlanadi. Tung guruhi Szyangsi viloyatining 10-uezdida tarqalgan Nantung, Jigao va hokazo, Xuey guruhi esa – Anxoy viloyatining olti uyezdida Shesyang (Xueychjou), Syunning va hokazolarda tarqalgan. Ushbu guruhning nomi Nantung va Xueychjou jo‘g‘rofiy nomlari boshlang‘ich bo‘g‘inlari asosida berilgan.

Mazkur sheva hududida Pekin, Shenyan, Szinan, Chjenchjou, Tayyuan, Sian, Lanchjou, Chendu, Kunmin, Xankou kabi Xitoyni yirik shaharlari joylashgan. Pekin shevasi markaziy sheva xisoblanadi. Shimoliy sheva o‘rtasidagi grammatik, fonetik va leksik farqlar muloqot uchun jiddiy to‘sqinlik qilmaydi. Ammo ayrim hollarda, Shimoliy shevalar bir-biridan uzoq jug‘rofiy joylarda bo‘lsa, ular o‘rtasidagi muloqot og‘irlashgan.

Xitoy tili hududining 1/3 qismida tarqalgan va Xitoy aholisining 30% qamrab oluvchi janubiy sheva hududida quyidagi guruhlarga mansub shevalar mavjud²⁰.

U shevalar guruhi: Szyansu shahri, Yanszidan janubda joylashgan janubiy qismi, Chunmindao oroli, Yanszining shimoliy sohilidagi uezdlar, Chjeszyan shahrining aksariyat qismida tarqalgan. Bu shevalar guruhi quyidagilarga bo‘linadi:

²⁰ (Astraxan B.B. Zavyalova O.I. Sofronov M.V. “Диалекты и национальный язык в Китае” Moskva – “Наука” 1985. - 13-19

Szyan-Chje shevasi: Szyansu viloyatining janubiy qismida va Chjenzyan o'lkasining shimolida tarqalgan.

Ou-Xay shevasi: Venchjou hududi, Xaymen va Ouszyan daryosi o'rtasidagi vodiya tarqalgan.

Chje janubiy sheva: Syan tanszyan daryosidan janubda, Chjeszyan o'lkasi janubida tarqalgan.

Syan shevalari guruhi: Xunan va Guansi shaharlarining bir nechta uyezdida tarqalgan. Bu shevalar guruhi quyidagilarga bo'linadi.

Syan yangi shevalar guruhi: (bu, asosan, o'lkaning shimoliy qismida joylashgan yirik shahar markazlarining shevalari) va Syan eski shevalar guruhi (Xunan viloyatining barcha qishloqlarida, ayniqsa, uning tog'li, janubiy qismidagi shevalar).

Gan shevalar guruhi: Szyansi o'lkasining markaziy qismida tarqalgan. Bu guruh quyidagilarga bo'linadi.

Gan-Xakka shevasi: (Szyansi viloyatining janubiy qismida tarqalgan va gan shevasidan Xakka shevasiga o'timli hisoblanadi) va Syan-Gan shevasi: (Szyansi viloyatining g'arbiy qismida tarqalgan va Gan shevasidan Syan shevasiga o'timli hisoblanadi).

Xakka shevalar guruhi: Xakka etnik guruhi ishlatadigan shevalar. Ular Nanshandan janubga Guandun, Fuszzyan va Szyansi viloyatlari hududlarida tarqalgan. Bu etnik guruh o'troq bo'lmagani sababli uning vakillarini butun janubiy Xitoy va Tayvanda uchratish mumkin²¹.

Yue shevalar guruhi: Guandun shahrining markaziy va Janubiy-g'arbiy qismida tarqalgan. U beshta kichik guruhga bo'linadi: Yue-Xay shevasi

²¹ (Алексахин А.Н. “Диалект Хакка”(китайский язык). Москва “Наука”, 1987. -77 бет)

(Chjuszyan qo‘ltig‘I va Siszyan xududlarida tarqalgan). Sinlyan shevasi (Sinchjou va Lyanchjou uyezdlarida tarqalgan).

Gao-Ley shevasi: (Gaochjou va Leychjou viloyatlari); to‘rt shahar shevasi (Taytay, Sinxuy, Kaypin, Sipin shaharlari areali), Janubiy Guansi shevasi (Uchjou, Junsyan, Yuylin, Bobay va Guansi provinsiyalarining janubiy-g‘arbiy qismi).

Min shevalar guruhi: Fuszyan viloyatining aksariyat qismida, Chjeszyan o‘lkasining Pinyan uezdida, Chaochjou va Shantou hududida, Guandun viloyatining sharqiy qismida, Xaynan orolida, Chjouman arxipelagida, Jayvanda tarqalgan. Bu guruhning shevalarida Janubiy dengizlar mamlakatlaridagi aksariyat Xitoy 华侨(huaqiao) mujohirlari gapiradi. Bu guruh quyidagilarga bo‘linadi: Min-Tay shevasi (boshqa nomi – “min janubiy shevasi”) Fuszyan viloyatining Min qisqartirilgan nomi asosida (Fuszyan viloyatining janubiy-sharqiy arealida, Guandun viloyatining janubiy-sharqidagi Chaochjou va Shantou shaharlarida, hamda Xaynan va Tayvanda tarqalgan). Min shimoliy shevasi (Fuszyan viloyatining shimoliy qismini va Chjeszyan viloyatining bitta uezdidan tashkil topgan arealda tarqalgan). Shimoliy Min ichida viloyatning bosh shahri shevasida namoyon bo‘lgan sharqiy shevasi va Szyansi shimoliy shevasi farqlanadi²².

Shuningdek, o‘z davrida S.I. Bruk tomonidan keltirilgan ma’lumotlarda Fuszyanning eng chekka Janubi guandung viloyatining sharqiy qismida, Xaynan va Tayvan orollarida tarqalgan Xakka shevasi ham eslatib o‘tilgan.

Turli hududlarda tarqalgan Janubiy shevalar o‘rtasidagi farq ahamiyatlidir, turli shevada gapiruvchilarning bevosita muloqoti yoki juda qiyin yoki umuman mumkin emas. Janubiy shevalarni u yoki bu guruhning tarqalish arealida, aynan

22 (Yuan szyaHua “диалекты китайского языка ” Москва 1965. –с. 30-40; Софронов М.В. Китайский язык и китайское общество –с. 49-51; Зарубежный восток: Языковая ситуация и языковая полотика. Справочник. Москва., 1986. –с. 215-216)

bitta uezdda, hatto bitta aholi yashash joyida bir qator hollarda turli sheva guruhlari yashaydi. Bu esa aholini ikkita va undan ortiq shevalarda gapirishiga olib keladi, buning natijasida esa shevalarni o‘zaro ta’sir jarayoni, bir-biri bilan aralashib ketishi kuzatiladi.

Xitoy til vaziyatida mintaqaviy koyne – aniq mintaqqa shevalararo muloqot vositasi bo‘lib xizmat qiluvchi yirik siyosiy markazlar shevasi – ma’lum o‘ringa ega. Xuddi shunday o‘ringa uyezd markazlari shevalarini kiritish mumkin. Ular shu uyezd qishloq aholisi uchun muloqot vositasi sifatida xizmat qiladi.

Shunday qilib, Guanxua shevalar guruhi uchun markaziy sheva sifatida Pekin shahri shevasi xizmat qiladi. Janubiy shevalarga kelsak, bu yerda mintaqaviy Koyne quyidagicha taqsimlanadi:

U shevalar guruhi – Shanxay va Suchjou shahar shevalari markazi; Syan shevalar guruhi – Chanchi shahri shevasi; Gan shevalar guruhi – Nanchan shahri shevasi; Xakka shevalar guruhi – Meysyan shahri shevasi; Yue shevalar guruhi – guanchjou shahri shevasi; Shimoliy Min shevalar guruhi – Fuchjou shahri shevasi; janubiy Min shevalar guruhi – Amoya shahri shevasi. Shuni ta’kidlash lozimki, Guanchjou shahri shevasi janubda shakllangan mintaqaviy koynelar orasida Guandun shahrining aksariyat qismi, Guansi viloyati Xitoy aholisi, Gonkong, Koulung, Makao shaharlari, Malayziya poytaxti, Kuala-Lumpur yirik markazi bo‘lgan Ipox va Perakli shtati xitoy aholisi uchun muloqot vositasi sifatida xizmat qiladi. Amaya shahri shevasi Guandun shahrining aksariyat qismi, Xaynan va Tayvan orollari Xitoy aholisi uchun Fuszyan shahrining janubiy qismidagi turli shevasida gapiruvchilar uchun, Janubiy dengiz va Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlaridagi Xitoy muhojirlarining aksariyati uchun muloqot vositasi bo‘ladi. Yanszini Janubiy sohilida joylashgan Szyansu va Anxoy viloyatlarining janubiy qismi va Chjeszyan shahri aholisi uchun shevalararo muloqot sifatida Xitoyning

mintaqasi xizmat qiladi. Janubiy Xitoyni mintaqaviy koynesi o‘zining tarqalish hududlari bilan chegaralangan va undan tashqarida deyarli ishlatilmaydi.²³

Xitoy shevalarining hududiy tarqalish xaritasi **Ilava №1**da keltirilgan.

Yaqinda ularga yangi Ping Hua deb nomlanuvchi sheva qo‘shildi. Ushbu sheva Guang Xi atroflarida keng tarqalgan. Xitoyning eng katta dialektlaridan biri - bu Pekin, ChjeSzyan, Guandun va Fuszyan shevalari hisoblanadi.

²³ (I.N. Bekmuratov, Sh.I. Shozamonov “Xitoyda til vaziyati” TDSHI 2013 38-42 bet)

II bob. Guangdonghua shevasining xususiyatlari

2.1. Guangdonghua shevasining hududiy tarqalishi va uning qoʻllanish doirasi

Guangdonghua shevasi Guandun provinsiyasining katta qismida ishlatiladigan xitoy tili shevasidir. Bu sheva Guangdong provinsiyasining katta qismida va Guansi provinsiyasining bir qismida keng tarqalgan. Guandunlik ikki kishi orasida mazkur sheva “白话” (baihua) deb yuritiladi, boshqa provinsiyadagi koʻpchilik odamlar Yue tilini Guangdonghua 广东话 deb yuritishadi. Guandun-ning turli qismlarida turli shevalarda gaplashiladi, masalan, sharqiy va shimoliy qismlarda Keszya shevasida, Janubiy-Sharqiy togʻli hududlarda va LeiChjou yarim orolida MinNan shevasida soʻzlashiladi. Shuning uchun ayrim manbaalarda keltirilishicha 粤语 ning 广东话 deb nomlanishi aniq emas.

粤语 yana oʻz navbatida turli ikkilamchi shevalarga boʻlinadi. Guandun provinsiyasida quyidagi shevalar mavjud:

Siyihua (四邑话) – TaiShan(台山话) shevasi deb ham yuritiladi. Mazkur sheva Amerika ChinaTownlarida 1970-yilgacha yetakchi boʻlib hisoblangan. Guandunning janubida keng tarqalgan.

Gaoyanghua (高阳话) – Guandunning janubi-gʻarbiy qismida YanSzyan togʻli okrugida keng tarqalgan.

Wuhuahua (吴化话) – Guansi-Chjuan avtonom rayonining sharqida (VuChjou togʻli okrugida) keng tarqalgan.

Goulouhua (勾漏话) – Guandun gʻarbi va GuanSi-Chjuan avtonom rayoni sharqida; YuyLin togʻli okrugi shevasini ham oʻz ichiga oladi.

Yongsyunhua (邕浔话) – GuanSi-Chjuan avtonom rayoni va uning poytaxti Nanninda keng tarqalgan.

Tsinlyanhua (钦廉话) – Guansi-Chjuan avtonom rayonining janubida tarqalgan.

Danchjouhua (儋州话) – Hainan orolidagi Chanszyan-Li avtonom uyezdida keng tarqalgan.

Haihua (海话) – Guandunning janubi-gʻarbidagi Lianszyan toʻg uyezdi hududlarida keng tarqalgan.

广东话 ning kelib chiqishiga 4 ta asosiy sabab bor. Birinchidan, u koʻp miqdorli Han millatiga mansub boʻlgan kishilarga umumiy til boʻlib xizmat qiladi. Aynan mana shu xususiyat eng katta eʼtiborga ega boʻldi. Bugungi kunimizdan kelib chiqib aytadigan boʻlsak, 粤语 ning 普通话 bilan oʻxshashlik tomonlari boshqa shevalar bilan taqqoslanganda farqli tomonlariga qaraganda koʻproq. Ikkinchidan, uning deyarli ayrim qismlari qadimgi xitoy tilidan qabul qilingan va u nisbatan koʻp miqdorda qadimgi xitoy tilini saqlab qolgan. Yaʼni shimol shevalarida bu holat deyarli yoʻqolib ketgan 广东话 guǎng dōng huàda esa bu holat kuzatilib kelmoqda. Ohanglar masalasiga kelsak 广东话 guǎng dōng huà qadimgi xitoy tili ohanglarini oʻzida saqlab qolishga erishdi. Leksik jihatdan 粤语 qadimgi xitoy soʻzlarini yoki ularning maʼnosini saqlab qoldi, lekin shimol shevalarida bu soʻzlar va maʼnolar yoʻqolib ketgan. Uchinchidan, leksik va grammatik jihatlarida 越语 yuè yǔ ning pastki qatlami qoldiqlari saqlanib qolgan. Toʻrtinchidan, uning katta miqdorda yangiliklari bor. Yaʼni 广东话 shakllanish va rivojlanish jarayonida, toʻxtovsiz ravishda oʻzining dialektal leksikasini boyitib kelmoqda. Bu soʻzlar qadimgi xitoy tilidan oʻzlashtirilgan emas, chet tilidan oʻzlashtirilgan ham emas, qaysidir tilning pastki qatlami ham emas, balki shu sheva vakillari turli darvrlarda yaratib hozirgacha ishlatilib kelinmoqda, ayrimlari esa hattoki yaqin yillarda yaratilib bunday soʻzlarning tildagi tutgan oʻrni nihoyatda kattadir. Bundan tashqari yaqin yuz yil mobaynida ingliz tilidan ayrim oʻzlashma soʻzlar oʻzlashtirilgan. yaqin yillar ichida esa Gonkongda ham ayrim

soʻzlar oʻzlashtirildi. Lekin 普通话 ning qattiq taʼsiri ostida ommaga kirib ishlatilayotgan oʻzlashtirma soʻzlar koʻp emas. 普通话 da soʻzlovchi odamning 广东话 ni oʻrganishi biroz murakkab. Bunda, albatta, mantiq bor. Birinchidan, 广东话 ning fonetikasi nisbatan qiyinroq. Ayniqsa, toʻrtinchi ohangda keladigan sirgʻaluvchi tovush bilan tugaydigan soʻzlari, yaʼni shimol odami bu tovushlarni tallaffuz etishda juda qiynaladi. Boshlangʻich sinfdan yuqori boʻlgan odamlar ingliz tilini oʻrganganlar. Ingliz tilida juda koʻp yopiq boʻgʻinlar bor. 广东话 dagi toʻrtinchi ohangda tallafuz etiladigan soʻzlar xuddi ingliz tildagi yopiq boʻgʻinlar singaridir. Ingliz tilidagi yopiq boʻgʻinlarni oʻrganib keyin 广东话 dagi toʻrtinchi ohangli soʻzlarni oʻrgansa, vaziyat ancha yengillashadi. Rostini aytsak qiyinchilik qaysi soʻzlar toʻrtinchi ohangda tallafuz qilinadiganligini eslab qolishdadir. Buning uchun xotiraga murojaat etiladi va oʻzining maʼlum bir qoidalari mavjud. 广东话 ning ohanglarini oʻzlashtirish esa ikkilamchi vazifaga aylanadi.

Guangdonghua shevasi – Xitoy tilining eng asosiy dialektal guruhlaridan biri yoki xitoy tillar guruhining asosiy tillaridan biridir. Uni 粤语 (yuè yǔ) deb ham atashadi. Guangdonghuada Xitoyning janubi-shimolida gaplashiladi. Guangdonghuada GongKong, Makao, Janubi-Sharqiy Osiyoning kam sonli etnik guruhlari, butun dunyodagi 华侨 (huá qíáo), yaʼni xitoy emigrantlari gaplashadi. Uning kelib chiqishi fransuzcha (“Canton” kanton) soʻzidan kelib chiqqan. Mazkur soʻz orqali kolonial davrda inglizlar 广州 (guǎng zhōu) 广东 (guǎng dōng) viloyatining poytaxtini ifodalab kelishgan. Guangdonghua ham ohangli tildir. Guangdonghua qoʻllanilish hududiga qarab farq qiladi.

Ulardan eng asosiysi bu – Guangdonghuadir, uni “kanton” shevasi deb ham atashadi. Guangdonghua nafaqat Guandun viloyati, balki butun chet el kanton diasporasiga mintaqaviy koyni sifatida qoʻllaniladi. Guangdonghuani butun dunyo aholisining 70 mln nafari soʻzlashadi. Janubiy Xitoyning iqtisodiy va madaniy markazi boʻlgan GongKongda ham soʻzlashiladi. Undan tashqari Tayshan shevasi ham mavjud. Unda Guandun viloyatidan kelib chiqqan AQSHda “Xitoyliklar

ko‘chishi man etilgan” (Chinese Exclusion Act) paytdan yashab kelayotgan emmigrantlar hamda uch avlod mobaynida yashab kelayotgan kelib chiqishi Guandun lik bo‘lgan AQShlik xitoy oilalari so‘zlashishadi.

Lingvistlar tomonidan Guangdonghua alohida til ekanligi yoki shevalar guruhi ekanligi borasidagi fikrlari hali hanuz turlicidir. Ko‘pchilik jihatlari bilan bu nafaqat tilshunoslik balki siyosat bilan bog‘liqdir. Ko‘pchilik g‘arb olimlari Guangdonghuani alohida til deb olishsa, xitoy tilshunoslari Guangdonghuani xitoy tili shevasi sifatida ko‘radi. Ko‘pgina o‘zbek tilshunoslari ham Guangdonghuani xitoy tili shevalari sirasiga kiritadi. Guangdonghua nomi ostida YueHai va GuanSi shevalari tushuniladi.

Bugungi kunda Guangdonghua: O‘zbekistonda Guangdonghua deyarli o‘rganilmaydi. Xitoy o‘qituvchilari esa Guangdonghuani o‘rganishni tavsiya etmaydilar hatto. Chunki Xitoyda Guangdonghuada yozilmaydi, faqatgina GongKong va Makaoda, Putonghua ham, shevada kelayotgan matn ham nisbatan qiyinroq an’anaviy bo‘lgan yozuv bilan ifodalanadi (XXR va Singapurda osonlashtirilgan yozuv qo‘llaniladi). Guangdonghuada tekstni kiritish borasida ham bir qator qiyinchiliklarga to‘qnashish mumkin. Unda talaygina qiyin ierogliflar mavjud. Bunday ierogliflar standartlashtirilgan xitoy tilida yoki umuman mavjud bo‘lmagan yoki qo‘llanishdan chiqib ketgan. Bir tomondan, Kanton shevasini til darajasiga ko‘tarmoqchi bo‘lganlar ham bor, Kantopop (estrada yo‘nalishi) mavjud, shevada yozilgan komikslar va ko‘ngilochar matnlar ham bor. Hattoki, GongKong filmlarida keltirilayotgan subtitrlar ham Putonghua ham Guangdonghuada berilgandir, endilikda DVD disklarda u tilni ham bu tilni ham eshitish mumkin ²⁴.

Guangdonghua shevasi – qarashlar turliciligiga qarab, asosiy shevalar guruhi, yoki xitoy tillar guruhi hisoblanadi. “Guangdonghua” shevasi tor ma’noda faqat

²⁴ Савенкова М.С. “путунхуа и диалекты”

GuangChjou va uning atroflari, Gongkong va Makao shevalarini ham o‘z ichiga olgan holda tushuniladi. U YueHai va GuangChjou shevasi deb ham yuritiladi.

Guangdonghua shevasining “Kanton” deb nomlanishi, fransuzcha talaffuzdan kelib chiqqan. U inglizlar qaramida bo‘lganida Guandun viloyati poytaxti GuangChjouni ifodalab kelgan.

“粤” (yue) termini butun xitoy tili arealining 普通话 adabiy tilining transkripsiyasi hisoblanadi. Gongkong, Makao va immigrantlar o‘z tilini 广东话, ya’ni 粤语 da “GuanDungWaa” deb atashadi.

Kanton shevalari joyga qarab farqlanadi. Ulardan eng asosiysi GuangChjou shevasi – u Kanton shevasi hamdir. Ushbu tilda dunyo bo‘ylab 70 mln kishi so‘zlashadi. GuangChjou shevasi nafaqat Guandun viloyati, balki butun dunyo xitoy emmigrantlari “华侨” larning shevasi hisoblanadi.

Xitoyliklarning chet ellardagi diasporalari ilgaridan FiSzyan va Guandun viloyatlaridan tarqalgan. Natijada dunyoda ushbu shevada gapiruvchilar soni Xitoydagi sheva vakillaridan ko‘proq qismini tashkil qiladi.

Kanton shevasida gapiruvchi, Xitoy hududida yashaydigan 华侨 lar eng ko‘p AQSH va Kanadada joylashgan. Singapur hamda Malay versiyasidagi Guangdonghua shevasidagi ko‘plab so‘zlar malay va boshqa tillardan o‘zlashtirilgan.

Tarixi. Zamonaviy statusi. Qing askarlari janubiy hududlarni bosib olganidan so‘ng, xalq Guandun, Guangsi, Xunan, Szyansi va Vyetnamning shimoliy hududlarini egallovchi Linnan hududiga qarab qochadilar va u yerda joylashadilar. Bu ko‘chish natijasida Putonghua Xitoyning janubiy qismida keng tarqala boshladi.

Sui sulolasining hukmronligi davrida shimoliy Xitoyni urush va parokandachilik egallaydi. Bunda ham ko‘p miqdordagi shimolliklar janubga siljiydilar. Natijada

LinNan hududida poytaxt shevasidan farq qiluvchi o'zgacha bir sheva shakllana boshladi.

Yue shevasining talaffuzi hamda grammatikasi Tan davrining davlat tiliga juda ham o'xshashib ketadi. Shevashunoslikning ma'lumotiga ko'ra Guansi dan kelgan ko'chmanchilar Yue shevasini GuangDongga olib kelishgan.

Sun davriga kelib markaziy Xitoy tillari sezilarli darajada farqlana boshlagan, shu paytda Yue Putonhuadan ajralib chiqqan degan farazlar mavjud.

Qing davrining izolyatsionizm siyosati dengiz savdosining taqiqiga olib kelgan. GuangZhou dengiz savdosi ruxsat berilgan bir necha shaharlardan biri edi. Chet elliklar esa shu paytda keng tarqalgan Yue tilini, ayniqsa, Kanton shevasini o'rgana boshlashgan. Makao hamda Gongkongning Yevropaga qaramligi ham, o'z navbatida, Yuening tarqalishiga sabab bo'lgan.

Qing davrining qulashidan so'ng, revolyutsiya yetakchilari, Sun YatSen ham VenYan 文言 ning o'rniga yangi davlat tilini tanlash uchun yig'ilishdi. Shu davrda Putonghua Manchjur zodagonlari gaplashadigan shimol shevasi edi. U ko'pincha haqiqiy xitoy tili deb tan olinmagan. Yue saylovda atiga bir necha ovoz evaziga mag'lub bo'ldi.

Ayrim lingvistlar Yueni VenYanga ham talaffuz jihatdan, ham grammatik jihatdan yaqin deb hisoblashadi. Putonghuada o'z qofiyasini yo'qotgan ko'pgina she'rlar Yue da qofiyalanadi. Uning ayrim arxaistik jihatlari tufayli Yueni qadimgi Xitoy madaniyati bilan tanishish uchun o'rganishadi.

Xitoy hukumatining siyosati – Putonghuani ommalashtirishda o'z aksini topadi. Lekin Yue shevasida gaplashish va janub madaniyatini tarqatish taqiqlangan emas va bunday tashabbuslarning budjet jihatdan qo'llab quvvatlanishi ham mavjud emas. Xitoyning materik qismida butun ta'lim Putonghuada olib boriladi, xabarlarda tez-tez Yueda gaplashuvchi o'quvchilarni jazolanishi haqida ma'lumotlar ham beriladi.

Gongkong va Makaoda o'qituvchilar Kanton shevasida so'zlashishadi. U yerda Guangdonghua shevasi keng qo'llaniladi. Jumladan kino sanoati va estradada ham. Gongkong kinolari va kantopopning mashhurlashuvi Guangdonghua shevasiga bo'lgan qiziqish darajasini yanada ko'tardi.

Gongkong hamda Makao materikdan ajralib qolgan, Guangdonghua shevasida so'zlashuvchi aholi 华侨 lar esa butun dunyoda 70 000 000 kishini tashkil etadi. “武侠”janridagi ko'pgina kinofilmlar Guangdonghua shevasida suratga olinadi, natijada Putonghua bilan dublyaj qilinadi yoki subtitrlar bilan kuzatiladi.

Guangdonghua shevalari. Guang dong hua o'z ichiga bir necha shevalarni oladi. Pastroqda Kempbell klassifikatsiyasi keltirilgan.

Kanton shevasi (广府话 guangfuhua yoki 粤海话 yuehaihua) GuangZhou hamda qo'shni shaharlar ChjongShan, FoShan (Guandun viloyati); VuChjou, Gongkong va Makaoda keng tarqalgan.

Kanton shevasi (Guanchjou shevasi) (粤海) yuehai “yuqori darajali” hisoblanadi va formal darajada standartni ifodalab keladi. O'tmishda “Kanton tili” deb aynan shu idiomani atashgan, natijada nomlanish butun yue guruhiga ishlatila boshlagan.

2.2. Guangdonghua shevasining fonetik xususiyatlari

Fonetika va fonologiya

Vokalizmlar

Guangdonghuada vokalizmlar tizimi o'z ichida 8ta yunmu fonemani mujassamlashtiradi: a:, a, ɛ, œ, ɔ, i, y, u. Ular tilning ko'tarilish darajalariga, qatoriga, lablanganlik-lablanmaganligiga, cho'ziq yoki qisqa talaffuz etilishiga qarab o'zaro farqlanadilar (1-jadval).

Yuqori til unlilarga - i, y, u; o'rta til unlilarga - ɛ, œ, ɔ; til orqa unlilarga – a:, a kiradi.

Guangdonghuada old qator unlilari – i, y, ɛ, œ va orqa qator unlilari – u, ɔ, a:, a farqlanadi.

Lablanganlik va lablanmaganlik xususiyatiga qarab y-i va ɛ-œ farqlanadi. Cho'ziq va qisqa talaffuz qilinishiga ko'ra barcha yopiq bo'g'inlarda a: va a farqlanadi.

Unlilar so'z yasovchilar hisoblanadi. Ularning deyarli barchasi y ni istisno qilgan holda yopiq bo'g'inda cho'ziq yoki qisqa talaffuz qilinadigan allofonlar sifatida o'z aksini topishi mumkin, y doim cho'ziq fonema bo'lib keladi. Bir unli yoki unli va undoshdan tashkil topgan ochiq bo'g'inlarda bu unlilar cho'ziq allofonlar sifatida o'z aksini topadilar. Yarim ochiq va yopiq bo'g'inlarda esa – cho'ziq yoki qisqa allofonlar bo'lib o'z aksini topadi. **Ilova №2**ga qarang.

Bo'g'inlarda unlilarning cho'ziq holda yoki qisqa etib talaffuz qilinishi bilan yana bir qator xususiyatlar bog'liq.

Cho'ziq a: yuqoriroq bo'lib til o'rta unlisiga yaqinroq bo'ladi. Qisqa a yuqori darajadagi [ɒ] unlisi sifatida qo'llaniladi, lekin til orqa unlisiga yaqinroq, [ʌ] ga yaqinroq bo'ladi.

ɛ, œ, ɔ kabi qisqa tovushlar ovoznig yuqoriga ko'tarilishiga ko'ra tegishli cho'ziq unililarga nisbatan yuqoriroq, qisqa œ esa cho'ziq œ unlisiga nisbatan o'rta til tovushiga yaqinroq bo'ladi. Shuning uchu ular e, ø o sifatida talaffuz qilinadi. Bunday holat – j undoshidan oldin keladigan ɛ kelganida; -j, n, t undoshlaridan oldin keladigan œ; w dan oldin keluvchi ɔ ga taaluqlidir.

Ko'tarilishiga ko'ra yuqori –i, u kabi unililar aksariyat holatlarda cho'ziq boladi. Ular qisqa allofonlan sifatida kelganida tegishli cho'ziq allofonlarga nisbatan bir muncha kengroq talaffuz qilinadi va til ko'tarilishiga ko'ra pastroq bo'ladi. i va u ning shu tariqa ifodalanishi bo'g'in ŋ va k tovushlari bn tugaganidagina amalga oshadi. ŋ dan oldin keluvchi u – v tariqasida belgilanadi.

广东话 da yettita unli mavjud: a, ɛ, I, ɔ, u, y, œ. “a” unlisi uzun va qisqa o'qilishlarga ega. a dan so'ng ikki nuqta kelsa, u holda a tovushi cho'ziqroq talaffuz etiladi. Ikki nuqta qo'yilmasa aksincha. 广东话 dagi cho'ziq a: 普通话 dagi a bilan o'xshashdir, masalan “买” –sotib olmoq so'zi, 普通话 da mǎi, 广东话 da ma:i¹³, ikkalasi ham juda ham yaqin. 广东话 da qisqa a ni talaffuz etganda. Cho'ziq “a” ga nisbatan qisqa talaffuz etiladi va til orqaga nisbatan yig'ilgan bo'ladi, masalan “米” 广东话 da mai¹³.

ɛ unlisi cho'ziq unlidir, ei –dagi e qisqa, 普通话 dagi ei bilan bir xildir.

i unlisi iŋ, ikkita yunmu orasida kelganida talaffuz nisbatan ochiq va qisqa bo'ladi.

ɔ unlisi cho'ziq unlidir, ou dagi o qisqa, bu yun mu 普通话 dagi ou ga talaffuz jihatidan yaqin.

u unlisi uŋ, uk ikki yun mu orasida kelganda nisbatan ochiq va qisqa talaffuz etiladi.

œ unlisi œŋ, œk ikki yun mu orasida kelganida, cho'ziq o'qiladi, œy, œn, œt uchta yun mu orasida kelganida, œ –ø tariqasida qisqa talaffuz etiladi.

Yunmularni o'qish jadvali: **Ilova №3**ga qarang.

Unlilar taqqoslanishiga misollar:

a⁵⁵ daraxt, so‘qmoq; ɔ⁵⁵ bolta; y⁵⁵ qarg‘a; sɔ³⁵ qulf; sɛ³⁵ yozmoq; si^ɕ o‘lmoq;
sy³³ kalamush, sichqon; mɔŋ¹¹ unutmoq; maŋ¹¹ ittifoq, liga; muŋ¹¹ yopmoq;
tsœŋ⁵⁵ oyna.

a: va a fonemalarining taqqoslanishiga misollar:

ka:j⁵⁵ ko‘cha; kaj⁵⁵ tovuq, xo‘roz; ha:w^ɕ imtihon; haw^ɕ og‘iz; sa:m⁵⁵ uch; sam⁵⁵
yurak, ha:k⁵⁵ qora; hak⁵ kesib olmoq.

i va u unlilari fonologik interpretatsiyaning 3 usuli mavjud.

1. i va u bo‘g‘indagi joylashishiga ko‘ra barcha pozitsiyalarda (boshida, o‘rtasida, oxirida) i va u unlilari tariqasida interpretatsiya qilinadi.
2. Bo‘g‘in boshida kelganida ular j va w tariqasida interpretatsiya qilinadi, bo‘g‘in boshi va kelib chiqishida esa i va u tariqasida.
3. Bo‘g‘in o‘rtasida ular i va u tariqasida, bo‘g‘in boshi va kelib chiqishida esa j va w tariqasida interpretatsiya qilinadi.

Yuqorida keltirilgan fonemalarning bo‘g‘indagi roliga qarab, biz T. Kao singari qachonki ular bo‘g‘in yasovchi yoki undosh bo‘lib kelganida, va bu funksiyani amalga oshirmaganida i va u ni unlilar deb hisoblaymiz.

Konsonantizm

Olimlar o'rtasida Guangzhouhuada undoshlar soni borasida ko'pgina kelishmovchiliklar mavjud. Bu borada Wang Li va boshqa tilshunos olimlar "Xitoy tili shevalari ocherki"da undoshlar soni 19 ta deb keltirilgan, lekin Chen HuiYin va Bai WanZhu lar fikri bo'yicha 15 ta. Bu Chen HuiYin va Bai WanZhu lar yarim undosh hisoblanmush j va w ni undoshlar qatoriga kiritmaganliklari bilan izohlanadi, kw va k^hw larni esa klaster deb hisoblashadi. Wang Li va "Ocherklar" mualliflari uni ham buni ham undoshlarga kiritadilar.

GuangDongHuada 19 ta shengmu mavjud:

- 1) tʃ, tʃ^h, ʃ uchta til oldi sirg'aluvchi tovush PuTongHuadagi z, c, s, va j, q, x larga yaqin.

(taqqoslashni osonlashtirish uchun, GuangDongHuada tʃ, tʃ^h, ʃ tovushlarini yozuv ostida ts, ts^h, s tarzida belgilash lozim)

- 2) w, j yarim unlilari, PuTongHuadagi w, y ga, ammo talaffuz jarayonida PuTongHuanikiga qaraganda ozroq qattiqroq talaffuz qilinadi.

- 3) kw, k^hw tovushlari PuTongHuadagi gu-, ku- shengmulariga yaqin²⁵.

kw yoki k^hw lablangan til orqa yoki klaster tariqasida ta'riflanadi. Birinchi holat ularning distributsiyasidan kelib chiqadi, ular odatda undoshlar keladigan pozitsiyada keltiriladi. Ikkinchi holatda kw va k^hw ning til orqa undoshlaridan ekanligi va undan so'ng u undoshi keltirilishi, lablangan til orqa undoshining boshqa shevalarda uchramasligi va Yue oilasiga kiruvchi shevalarda ham kam uchrashi inobatga olinadi. "Ocherklar" mualliflari ularni lablangan til orqa undoshlari deb keltirishgan edi. Mazkur ishimizda biz ham ular bilan bir fikrga ega bo'ldik.

²⁵ 欧阳觉亚 "普通话广州话比较与学习"北京 - 中国社会科学出版社 1993年45-48 页

Shu tariqa Guangdonghua konsonantizmlar sistemasida 19 ta undosh fonemalar mavjud: p, p^h, m, w, f, t, t^h, n, l, ts, ts^h, s, j, k, k^h, ŋ, kw, k^hw, h. Ular cheklangan kombinator imkoniyatlar bilan xarakterlanadi. Undoshlarning bo‘g‘inlardagi ixtiyoriy o‘rinda yonma-yon kelishi mumkin emas.

Barcha undoshlar bo‘g‘in boshida keladi va bo‘g‘in o‘rtasida ishlatilmaydi. 8 ta undosh tovush m, n, ŋ, p, t, k, w, j bo‘g‘in boshida kelishi mumkin.

Burun undoshlari m, n, mustaqil bo‘g‘in yasashi mumkin.

Undoshlar shovqinli (p, p^h, m, f, t, t^h, ts, ts^h, s, k, k^h, kw, k^hw, w, h) va sonorlarga (m, n, i, j, ŋ, w) bo‘linadi. Undoshlar jarangsiz undoshlar (p, p^h, f, t, t^h, ts, ts^h, s, k, k^h, kw, k^hw) va jarangli undoshlar (m, n, f, j, ŋ, w) dan tashkil topadi. O‘zbek tilidan farqli o‘laroq, Guangdonghuada undosh tovushlarni jarangli va jarangsiz undoshlarga ajratilmaydi.

Undoshlar ularning kelib chiqish usuli va joyiga ko‘ra farqlanadi. Shuningdek, ular **aspirirtirilganlik** va **aspirirtirilmaganlik** hamda lablanganlik va lablanmaganligiga qarab ham farqlanadi.

Shakllanish usuliga ko‘ra ular **smychnye** va frikativga bo‘linadi. Birinchisiga, o‘z navbatida portlovchilar: p, p^h, t, t^h, k, k^h, kw, k^hw; affrikat: ts, ts^h; burun: m, n, ŋ; chetki: l kiradi. Frikativlarga esa w, f, s, j, h lar kiradi.

Yuzaga kelish joyiga ko‘ra undosh fonemalar lablangan, til, va bo‘g‘iz undoshlariga bo‘linadi. Lablangan undoshlar o‘z navbatida: lab-lab p, p^h, m, w va lab-tish f larni o‘z ichiga oladi. Til undoshlari – til oldi, til o‘rta, palatal va til orqa undoshlariga bo‘linadi.

Til oldi undoshlariga til-alveolyar t, t^h, n, l; til o‘rta undoshlariga ts, ts^h, s; palatal undoshlarga j; til orqa undoshlariga – k, k^h, ŋ, kw, k^hw lar kiradi. Bo‘g‘iz undoshlari o‘z ichiga h undoshini oladi.

Aspirirlantirilmagan undoshlarga: p, m, w, f, t, n, l, ts, s, j, k, ŋ, kw, h lar kiradi. **Aspirirlantirilgan** undoshlarga: p^h, t^h, ts^h, k^h, k^hw undoshlaridan tashkil

topgan. Guangdonghuda aspirirlantirilgan va aspirirlantirilmagan undoshlarni solishtirish juda ham muhimdir. Ular beshta lokal qatorlarda o‘rin egallab keladi va o‘z ichiga 19 ta undoshdan 10 tasini o‘z ichiga oladi.

Lablangan fonemalarga kw va k^hw undoshlari, lablanmaganlarga esa barcha qolgan undoshlar kiritiladi.

Guangdonghuda n va l, n va ø undoshlarining talaffuzda bo‘g‘in boshida almashinish holatlarini ham ta‘kidlab o‘tish muhim o‘rin tutadi. Lekin ko‘pchilik mazkur fonemalarni ajratib kelishadi, masalan: nej¹³ -“sen” va lej¹³ -“olxo‘ri”. Ko‘pchilik GuangDongHuada so‘zlashuvchilar ŋ va ø ni ma‘lum bir qoidalar asosida ishlatadilar: ŋ – pastki registr ohanglarida talaffuz qilinadigan bo‘g‘inlarda, ø – esa yuqori registr ohanglarida talaffuz qilinadigan bo‘g‘inlarda qo‘llaniladi.

GuangDongHuada bo‘g‘in boshida kelgan undoshlarni o‘zaro taqqoslashga misollar:

爸 pa⁵⁵ “ota”, 花 fa⁵⁵ “gul”, 加 ka⁵⁵ “qo‘shmoq”, 社 sɛ¹³ “jamiyat” “tashkilot”, 河 hɔ¹¹ “daryo”, 假 ŋɔ¹¹ “soxta” “yolg‘on”, 下 taj¹¹ “past”, 来 laj¹¹ “kelmoq”,

破 p^hɔ³³ “yirtmoq” “sindirmoq”, 多 tɔ⁵⁵ “ko‘p”, 推 t^hɔ⁵⁵ “sudramoq” “tortmoq”, 感 kɔk³³ “sezmoq”,

k^hɔk³³ “aniq” “ishonchli”, 挂 kwa³³ “osmoq”, 骑 kw^ha³³ “minmoq” va h.k

Guangdonghuda bo‘g‘inning **obsalyut** kelib chiqishidagi undoshlarga misollar:

la:p²² “oy taqvimi bo‘yicha ikkinchi oy”, 辣 la:t²² “achchiq”, 滑 wa:t²² “sirpanchiq”, wa:k²² “reja”, 男 na:m²² “erkak”, 难 na:n⁵³ “qiyin”, 港 hɔŋ²² “port”, 汗 hɔn²² “ter” (пот), 摆 pa:j⁵ “qo‘ymoq”, 包 pa:w⁵ “to‘yinmoq”

Guangdonghua shevasi undoshlari: **Ilova №4**ga qarang.

Ohang va Ohangdoshlar

Tonlar va tonemalar

Guangdonghuada bo‘g‘inni butunligicha xarakterlaydigan bo‘g‘inni tavsiflab keladigan, supersegment birliklar bo‘lib hisoblanadi. Bu holat Tan AQShan tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Unda ko‘rsatilishicha, bo‘g‘inning barcha barcha segment elementlari ohangning shakllanishida ishtirok etadi. GuangDongHuada ohangning boshqa bir segment bilan emas, balki aynan bo‘g‘in bilan bog‘langanligi nazariyasiga yana bir argument bo‘lib, bizning fikrimizcha m va η undoshlari (m undoshli bo‘g‘inlar pastki registrning to‘rtinchi ohangida talaffuz qilinadi, η undoshli bo‘g‘inlar esa mazkur registrning birinchi yoki ikkinchi ohangida talaffuz qilinadi) bilan ifodalangan bo‘g‘inlarning ohanglanganligidir .

Guangdonghuaning asosiy ohanglari: **Ilova №5**ga qarang.

An‘anaviy Guangdonghuada 11 ta ohang mavjudligi kuzatilgan, shulardan: 9 tasi asosiy va 2 tasi o‘zgartirilgan. Asosiy ohanglarga: Yuqori registr, ya‘ni YINning(55 yoki 53) va Pastki registr, ya‘ni Yangning (11 yoki 21) tekis ohanglari; yuqori registrning yuqoriga ko‘tariluvchi ohangi (35) va pastki registrning yuqoriga ko‘tariluvchi ohangi (13); Yuqori registrning pastga tushuvchi ohangi (33) va pastki registrning pastga tushuvchi ohangi (22); Yuqori registrning kiruvchi ohangi (5), o‘rta registrning kiruvchi ohangi (33), pastki registrning kiruvchi ohangi (2) va (22). Yuqorida ko‘rsatilgan jadval (**Ilova №6**)ga qarang²⁶.

Guangdonghuada ohanglar tekis va yuqoriga ko‘tariluvchilarga bo‘linadi. Tekis ohanglarga bevosita tekis ohang – (ping), pastga tushuvchi (qu) va kiruvchi ohanglar (ru) kiradi. Ping ohanglarining har biri ikkitadan ko‘rinishga ega. Ikkinchi ko‘rinishda talaffuzda kichik pasayish kuzatiladi. Me‘yorlashtirilgan shkalaga asoslanib birinchi ko‘rinishdagi tekis ohanglarga – 55 va 22, ikkinchi ko‘rinishga

²⁶ Mazkur jadval “Xitoy tili shevalari ocherki” asaridan olingan. (#57-188 bet).

esa bevosita – 53 va 21. Tekis ohang (ping)lar to‘g‘risida olimlar o‘rtasida ma’lum bir yagona fikr mavjud emas. Shu tariqa T. Kao bu ohanglarni faqatgina tushuvchi, ya’ni Putonghuadagi to‘rtinchi ohangga to‘g‘ri keladigan ohanglar sirasiga qo‘shadi, tekis ohang realizatsiyasini esa ularning kombinator ko‘rinishlari sifatida keltirib o‘tadi. O.K.Yu. Xasimotoning ta’kidlab o‘tishicha, ping ohanglari sirasiga kiruvchi ohanglar ko‘p hollarda o‘zaro almasha oladi. Tan AoShan tomonidan o‘tkazilgan intonogrammalar realizatsiyasiga va mazkur ohanglarga tegishli bo‘lgan bo‘g‘inlarning qabul etilishiga bag‘ishlangan tajribasida, shuni kuzatadiki, izolyatsion talaffuz qilinganda (ya’ni hech qanday kombinatorikasiz), ping ohanglari ikki konturda realizatsiya qilinadi, ya’ni yuzaga keladi. Ushbu tajribada ikkita diktir ishtirok etgan. Ulardan biri aksariyat hollarda ping ohanglarini chastotani tushurish bilan talaffuz qilgan edi. Ikkinchi diktir esa so‘zlarni talaffuz qilayotganda yuqori registr tekis ohanglarini faqatgina tekis chastotada talaffuz qilgan²⁷.

Shu tariqa, o‘tkazilgan tajriba natijasida shuni aytishimiz mumkinki, ping ohanglarining ikkala variant ham erkin **variatsiya** munosabatida bo‘ladi, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Guangdonghuada 6 ta 舒声调 (SHU ohanglar) va 3 ta 促声调 (CU qisqa ko‘makchi ohanglar) mavjud. **Ilova №7**

Ohanglarni yanada yaxshi tushunish uchun mazkur bitiruv malakaviy ishimizning ilovalar bo‘limida Guangonghua ohanglarining grafik yozuvini keltiramiz. **Ilova №8**

Ohanglar o‘zgarishi

Guangdonghuada so‘zlarning talaffuzida ohang o‘zgarishi holati kuzatiladi. Putonghua yoki boshqa shevalardagi ohang o‘zgarishi aksariyat holatlarda so‘zlarning ketma-ket o‘qilishi bilan bog‘liq bo‘ladi, shu bilan birga, bir ieroglif

²⁷ Янкивер С.Б. Кантонский диалект китайского языка. Москва “Наука” 1987 г. с. 18-92

boshqa ierogliflar bilan bog‘lab o‘qilganda, oldinda kelayotgan ieroglifning ohangi o‘zgarishga uchraydi.

Guangzhouhuada ham buday holatlar kuzatiladi, lekin unchalik ko‘p emas va aniq ko‘rsatilmagan. Juda ko‘p hollarda odatlanganlikga ko‘ra ohanglar o‘zgaradi.

(1) Ketma-ket o‘qilganda ohanglar o‘zgarishining 3 turi mavjud bo‘ladi.

1. Yuqori pastlashuvchi ohang yuqori tekis ohangdan oldin kelganida yuqori tekis ohangga o‘zgaradi.

开窗 hɔi⁵³ts’æŋ⁵⁵ — hɔi⁵⁵ts’æŋ⁵⁵ (oynani ochmoq)

香蕉 hœŋ⁵ʃsui⁵⁵ — hœŋ⁵⁵tsui⁵⁵ (banan)

千秋 ts’in⁵³ta’au⁵⁵ — ts’in⁵⁵ta’au⁵⁵ (ming yillar)²⁸

2. Yuqori pastlashuvchi ohang yuqori pastlashuvchi ohangdan oldin kelganida, yuqori tekis ohangga o‘zgaradi.

将军 tsœŋ⁵ʃkwan^{5 3} — tsœŋ⁵⁵kwan^{5 3} (general)

江山 kɔŋ⁵ʃa:n^{5 3} — kɔŋ⁵⁵sa:n^{5 3} (Jiang tog‘i)

飞机 fei⁵ʃkei^{5 3} — fei⁵⁵kei^{5 3} (samolyot)

Yuqori tekis va yuqori pastlashuvchi ohang ikkalasi ham yuqori registr 阴 ning tekis ohangiga taalluqlidir. Ularni taqqoslanish holatlari ham ko‘p emas. Oddiy so‘z bilan aytganda, og‘zaki nutqda keladigan ot so‘z turkumidagi so‘zlar yuqori tekis ohangda talaffuz qilinadi, 文言 tilida esa bu so‘zlar yuqori pastlashuvchi ohangda talaffuz qilinadi, fe’llarni esa yuqori pastlashuvchi ohangda talaffuz qilinadi. Umuman xulosa qilib aytganda, yuqori tekis va yuqori pastlashuvchi ohangning qo‘llanilishi nisbatan erkindir.

²⁸ Whitaker K.P.K Cantonese Sentence Series. London 1954.

3. Yuqori ko‘tariluvchi ohang, yuqori tekis ohangdan oldin kelsa, yuqori tekis ohangga o‘zgaradi.

东北 tun⁵ 3pak⁵⁵ ——— tun⁵⁵ pak⁵⁵ (shimoli-sharq)

三叔 sa:m⁵ 3suk⁵⁵ ——— sa:m⁵⁵ suk⁵⁵ (amaki)

Bundan tashqari, qarindoshlikni ifodalab keluvchi ikki bir xil so‘z qaytarilib kelinganida oldida keluvchi iyeroglif pastki tekis ohangda, orqasidagisi esa yuqori tekis yoki yuqori ko‘tariluvchi ohangda talaffuz etiladi:

妈妈 ma⁵⁵ ma⁵⁵ ——— ma¹¹ ma⁵⁵ (ona)

爸爸 pa⁵⁵ pa⁵⁵ ——— pa¹¹ pa⁵⁵ (ota)

姐姐 tsɛ³⁵ tsɛ³⁵ ——— tsɛ¹¹ tsɛ³⁵ (opa)

婆婆 p^hɔ¹¹ p^hɔ¹¹ ——— p^hɔ¹¹ p^hɔ⁵⁵ (qaynona)

妹妹 mui²² mui²² ——— mui¹¹ mui³⁵ (singil)

弟弟 tai²² tai²² ——— tai¹¹ tai³⁵ (uka)²⁹

(2) Odatlanganlik yuzasidan ohanglar o‘zgarishi.

Ohangning bunday o‘zgarishi gapirayotgan odamning odatlanganligiga ko‘ra sodir bo‘ladi. Uning so‘z manosi bn bevosita aloqasi bor. U yuqori tekis ohang o‘zgarishi va yuqori ko‘tariluvchi ohanglar o‘zgaruvchilariga bo‘linadi.

1. Yuqori tekis ohang.

Malum bir bo‘g‘inlar borki, ular o‘ziga xos so‘zlarda yoki ma’lum bir ma’no ifodalaganda ularni yuqori tekis ohangda o‘qish lozim. Jumladan, ba’zi bir ohang o‘zgarishlari so‘z ma’nosi bilan uzviy bog‘liq. Pastda ko‘p uchraydigan yuqori tekis ohangi o‘zgaradigan so‘zlar keltirilgan. (odatda, faqatgina ko‘rsatilgan holatlarda ishlatiladi):

²⁹ Янкивер С.Б. Кантонский диалект китайского языка. Москва “Наука” 1987 г.

人 jan¹¹—jan⁵⁵ (odam)“仅仅一个人”的意思：一个人 jat⁵⁵kɔ³³jan⁵⁵ (bitta odam) (既有一个人)

微 mei¹¹—mei⁵⁵ (kichik)“细小”的意思：沙尾 sa⁵³mei⁵⁵ (mayda qum) (细沙)；口水尾 hao³⁵sœy³⁵mei⁵⁵ (so‘lak)：酸微微 syn⁵³mei⁵⁵mei⁵⁵ (ozgina nordon)

兰 la:n¹¹—la:n⁵⁵ (ko‘k)：荷兰 heɔ¹¹la:n⁵⁵ (Gollandiya)；荷兰豆 hɔ¹¹la:n⁵⁵tau²²⁻³⁵ (Gollandiya fasoli)；白兰地 pa:k²²la:n⁵⁵tei³⁵ (brendi)

己 kei³⁵—kei⁵⁵ (o‘ziniki)：自己 tsi²²kei⁵⁵ (o‘zim)³⁰

2. Yuqori ko‘tariluvchi ohang og‘zaki nutqda, ayniqsa, erkin sharoitda 1-ohang, 2-ohang, 3-ohang, 4-ohangli so‘zlar ayrim hollarda yuqori ko‘tariluvchi ohangga ozgarishi mumkin bunday so‘zlar ba‘zilari mustaqil so‘zlar hosil qiladi, ba‘zilari murakkab so‘zlar ichidagi morfemani tashkil etadi. Mustaqil so‘z hosil qilgan so‘zlarning ohang o‘zgarishi uning tashkil etgan so‘zidan keyin uning qaysi joyda joylashuvidan qat’iy nazar ohang o‘zgarishi bilan o‘qish kerak. Og‘zakilashtirilgan so‘zlarda ohang o‘zgarishi ko‘p kuzatiladi. Yozma adabiyotdagi so‘zlar esa ko‘pincha asl ohangida o‘qiladi. Otlar ko‘pincha ohang o‘zgarishi bilan o‘qiladi qolgan so‘z turkumlari esa asl ohangida o‘qiladi. Yuqori ko‘tariluvchi ohang ko‘tarilishi insoniy omilga bog‘liq, ba‘zi bir so‘zlarning ohang o‘zgarsa, o‘zgarmasa, so‘z ma’nosida farq kuzatiladi. Odamlar nisbatan ko‘p qo‘llashadi. Ba‘zi bir so‘zlarda ohang o‘zgarsa, o‘zgarmasa, so‘z ma’nosiga ta’sir etmaydi, odamlar nisbatan kam ishlatishadi. Ohangning o‘zgarishi yoki o‘zgarmasligi holatlari bo‘lgani uchun quyida tez tez ohang o‘zgarib turuvchi so‘zlarni misol tariqasida keltiramiz.

³⁰欧阳觉亚 普通话广州话比较与学习 北京 - 中国社会科学出版社 1993 年

麻 ma¹¹——ma³⁵ “麻疹” (qizamiq): 出麻 ts^hcet⁵⁵ma³⁵ (出麻疹) (qizamiq toshmoq)

银 ŋan¹¹——ŋan³⁵ (kumush): 白银 pa:k²²ŋan³⁵ (oq kumush) 钱银 ts^hin³⁵ŋan³⁵ (kumush tanga)

皮 p^hei¹¹——p^hei³⁵ (charm, teri) “皮衣” (charm kiyim): 着皮 tsœ³³p^hei³⁵ (穿皮衣) (charm kiyimni kiymoq); 一件皮 jat⁵⁵kin²²p^hei³⁵ (一件皮衣) (bir dona charm kiyim)

头 t^hau¹¹——t^hau³⁵ (bosh); 工头 kuŋ⁵³t^hau³⁵ (usta); 事头 si²²t^hau³⁵ (ining boshi)

油 jau¹¹——jau³⁵ (moy): 白油 pa:k²²jau³⁵ (oq moy); 抽油 ts^hau⁵⁵jau³⁵ (nasos); 油油 jau¹¹jau³⁵ (moyli)

眼 ŋa:n¹³——ŋa:n³⁵ “口” (xisob so‘z) (量词): 一眼井 jat⁵⁵ŋa:n³⁵tsej³⁵ (bitta quduq); 一眼针 jat⁵⁵ŋa:n³⁵tsam⁵³ (bitta igna)

李 lei¹³——lei³⁵ “李子” (olxo‘ri); 李树 lei³⁵sy²²(olxo‘ri daraxti); 三华李 sa:m⁵³wa¹¹lei³⁵

女 nœy¹³——nœy³⁵ “女儿, 女子” (ayol, qiz); 大女 ta:i²²nœy³⁵ (katta qiz); 子女 tsai³⁵nœy³⁵ (子女) (o‘g‘il va qiz)

对 tœy³³——tœy³⁵ “对联”; 对对 tœy³³tœy³⁵ (to‘g‘ri)

话 wa²²——wa³⁵ (nutq): 笑话 siu³³wa³⁵ (latifa); 广州话 kwɔŋ³⁵tsau⁵³wa³⁵ (Guangdonghua shevasi); 普通话 p^hou³⁵t^huŋ⁵³wa³⁵ (Putonghua); 话剧 wa³⁵k^hɛk²² (dramatik sahna ko‘rinishi)

寺 tsi²²——tsi³⁵ (ibodatxona): 清真寺 ts^hiŋ⁵³tsan⁵³tsi³⁵ (masjid); 南华寺 na:m¹¹wa¹¹tsi³⁵ (Nanhua ibodatxonasi)

面 min²²——min³⁵: “面儿, 面子”(yuz, bet); 表面 piu³⁵min³⁵ (ustki qism); 水面 sœy³⁵min³⁵ (suv sathi); 全面 ts^hyn¹¹min³⁵ (har tomoni);

盒 hap²²——hap³⁵ (quti): 鞋盒 ha:i¹¹hap³⁵ (oyoq kiyim qutisi); 纸盒 tsi³⁵hap³⁵ (qog‘oz quti); 火柴盒 fɔ³⁵ts^ha:i¹¹hap³⁵ (gugurt qutisi)

拍 p^ha:k³³——p^ha:k³⁵ “拍子” (qoqib qo‘ymoq); 球拍 k^hau¹¹p^ha:k³⁵ (raketka)

Ikki xil ohang o'zgarishi butunlay bir xil emas, yuqori tekis ohangli so'zlarning ba'zilar ohang o'zgarganidan so'ng ko'p hollarda kichraytirishni, ikkinchi darajaviylikni ifodalab keladi. Ayrim fe'llar, sifatlar, hisob so'z shaklidagi so'zlarning ohanglari o'zgarishidan so'ng so'zlarning otlashish jarayoni kuzatiladi, bu, o'z navbatida, 普通话 dagi “儿化” hodisasiga o'xshab ketadi.

Otlarning ohanglari talaffuzda ko'p o'zgarayotgani uchun uni sayqallashtiruvchi tarkibi old qismida paydo bo'ladi, shuning uchun bir narsa bilan odamlarning fikrini chalg'itishi mumkin, ya'ni yuqori ko'tariluvchi ohang o'zgarayotganda o'zgarish ikki bo'g'inli yoki ko'p bo'g'inli so'zning oxirigi bo'g'inida sodir bo'ladi, deb xulosa chiqarish mumkin, aslida unday emas.

Tovushlarning o'zgarishga uchrashi

So'zlashayotganda, old va orqa pozitsiyada joylashgan harflarning ta'siri ostida, talaffuzda ba'zi o'zgarishlar yuzaga keladi. Ko'p uchraydiganlarga so'zlarning assimilyatsiyasi va so'zlarning qisqarishi hodisalaridir.

1) so'zlarning assimilyatsiyasi. Ko'pincha birinchi komponentning yunmu qismi va ikkinchi komponentning shengmu qismi orasida o'zaro ta'siri ostida o'zgarish yuz beradi. Masalan:

“今日” (bugun) dastlabki o'qilishi kam⁵³jat²², lekin, odatda, odamlar so'zlashayotganda kam⁵³mat²² tariqasida talaffuz qilishadi, “今物”, “琴日” (昨天) (kecha) dastlabki talaffuzi kham¹¹jat²² tariqasida ifodalanadigan so'zlar ham kham¹¹mat²² tariqasida o'zgarishga uchraydi.

“肚饿” t^hou¹³ŋ²² (qorni ochmoq) o'zgarishga uchrab t^huŋ¹³ŋ²²

“百足” dastlabki o'qilishi pa:k³⁵tsuk⁵⁵, so'zlashish jarayonida o'zgarishga uchrab pa:t³⁵tsuk⁵⁵ tariqasida, ya'ni Guangdonghuada “八足” so'zining talaffuziga yaqin bo'ladi.

“什么” mat⁵⁵jɛ¹³ (nima?) o'zgarib mɛ⁵³jɛ¹³ tariqasida talaffuz etiladi.

“五” 十(10) sonidan keyin, talaffuzi η^{13} dan m^{13} ga o‘zgaradi, masalan: “十五” $sap^{22}\eta^{13}$ — $sap^{22}m^{13}$ ga o‘zgaradi.

2) So‘zlarning qisqarishi. Bir necha so‘z ulanganda, ba’zi bir so‘zlarning ayrim morfemalari tushib qoladi, ba’zi holatlarda esa ikki bo‘g‘in birlashib bir bo‘g‘inni tashkil etishi ham mumkin. Buni yaqqol ko‘rsatadigan misollar quyidagilardan iborat:

“不” (yo‘q) m^{11} ieroglifi 好 (yomon) hou^{35} yoki 是 (bo‘lmoq) hai^{22} ierogliflari bilan birgalikda kelganida bo‘g‘inlarning qo‘shilib ketishi va so‘z qisqarishi holatlari kuzatiladi. “不好” (yomon) $m^{11}hou^{35}$ o‘zgarib mou^{35} tariqasida o‘qiladi. “不好要” $mou^{35}jiu^{33}$. “不是” (emas) ham qo‘shilib talaffuzi mai^{22} ga o‘zgaradi.

“没” (yo‘q) mou^{11} “有” (bor) jau^{13} qo‘shilib 没有(yo‘q) mou^{13} ni tashkil etadi. Oldingi komponentdan shengmu va yunmusini saqlab qolib ikkinchi komponentdan esa faqatgina ohangni qabul qildi.

“了” (o‘tgan zamoni bildiruvchi qo‘shimcha) $ts\text{O}^{35}$ yordamchi qo‘shimchasi fe‘lning tugallanganlik darajasini bildiradi. U fe‘ldan so‘ng kelganda ko‘pincha soddalashish yoki fe‘lga qo‘shilib ketish kabi o‘zgarishlarga uchraydi. Soddalashganda, “搬了两次” (ikki marta ko‘chgan) $pun^{53}ts\text{O}^{35}l\text{œ}\eta^{13}ts^{h}i^{33}$ o‘zgarib $pun^{53}\text{O}^{35}l\text{œ}\eta^{13}ts^{h}i^{33}$ ga o‘zgaradi. Tez gapirayotganda, juda ko‘p odamlar odatlanganliklari tufayli “了” yordamchi qo‘shimchasini fe‘lga qo‘shib yuborishadi. Fe‘l bilan 了 bir bo‘g‘inni tashkil etganda 了 butunlay yo‘qolib faqatgina ohangini saqlab qoladi. Masalan:

来了没? $lai^{11}ts\text{O}^{35}mei^{22}$ o‘zgarib $lai^{35}mei^{22}$ (keldimi yo‘qmi?) tariqasida talaffuz etiladi.³¹

买了三斤 $ma:i^{13}ts\text{O}^{35}sa:m^{53}kan^{53}$ — $ma:i^{35}sa:m^{53}kan^{53}$ (1,5 kg sotib oldi)

脱了件衫 $t^{h}yt^{33}ts\text{O}^{35}kin^{22}sa:m^{53}$ — $t^{h}yt^{35}kin^{22}sa:m^{53}$ (Ko‘ylakni yechmoq)

³¹ Oakeley R.H. Rules for Speaking Cantonese 1953.

Soʻz qisqarishining bu usuli soʻzlovchi Guangdonghuani toʻliq oʻrganib boʻlganidan soʻng soʻzlashi jarayonida tabiiy tarzda namoyon boʻla boshlaydi, Guangdonghuani oʻrganishni endi boshlayotganlar bu usulni notoʻgʻri egallab tushunmovchiliklarga duch kelmasliklari uchun bu usullardan shoshqaloqlik bilan vaqtli foydalanish tavsiya etilmaydi.

Xulosa

Xitoyda Putonghuaning muloqotning asosiy vositasi deb tan olingani va uning ko‘lami kengayayotganini hisobga olmasak, zamonaviy xitoy shevalari ham o‘z o‘rnini mahkam ushlab turibdi. Har bir sheva yoki dialekt o‘z xususiyatlariga ega, lekin bir vaqtning o‘zida ular o‘rtasida o‘zaro mahkam bo‘lgan bog‘lanishlar mavjud. Xitoy Xalq Respublikasining siyosati esa Putonghuani ommalashtirishdir.

Guangdonghua shevasi Putonghuadan fonetik, leksik hamda qisman grammatik jihatlari bilan farq qiladi. Kanton shevasida Putonghuada mavjud bo‘lmagan so‘zlar ham o‘rin olgan. Putonghuada mavjud bo‘lgan ayrim so‘zlar esa boshqa ma’noda qo‘llaniladi. Yue shevasida bo‘g‘in boshqa qonuniyatlarga asoslanib quriladi. Uning ohanglar sur‘ati ham Putonghuanikidan tubdan farq qiladi: Yue shevasida oltitadan sakkiztagacha sheva mavjud. Shu bilan bir qatorda ularning so‘z tarkibi va grammatikasining asoslari yagonadir. Bundan tashqari ular tovush o‘xshashliklari bilan ham o‘zaro bog‘liqdirlar.

Kanton shevalari joylashishiga qarab farqlanadi. Ulardan eng kattasi – GuangZhou shevasidir. Uni “Kanton” shevasi yoki “YueHai” shevasi deb ham atashadi. GuangZhou so‘zlashuvi Kanton shevasi talaffuzining standarti hisoblanadi. Yue tili 粤语 – Xitoy tili guruhlarining Gongkong va Makaoda keng tarqalgan tilidir. Mazkur regionlarda deyarli barcha siyosiy jarayonlar va diskurslar Yue tilida o‘tkaziladi, bu esa o‘z navbatida uni Xitoydagi yagona rasmiy kishilar qo‘llaydigan norasmiy til etib ko‘rsatadi. Bundan tashqari Yue so‘zlashuvi chet ellardagi HuaQiao 华侨 lar o‘rtasida keng qo‘llanilmoqda.

Kanton shevasida, xuddi boshqa xitoy tillari singari o‘zining mashxur musiqiy turi mavjud, u “Kantopop” dir. Gongkongda qo‘shiqlar asosan kanton shevasida yoziladi. Kantopop ijrochilari va Gongkong filmlarining mashxurligi odamlarning Kanton shevasiga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otdi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishimizda biz sheva tushunchasiga ta’rif berib, Xitoyda shevalarni o‘rganish qay davrdan boshlanganligi, qaysi tilshunos olimlar

Xitoyda ilk bor shevalarni o‘rganib o‘z xulosalariga kelishganligi haqida ma’lumot berib o‘tdik. Bundan tashqari Xitoy tilining Guangdonghua shevasi haqidagi umumiy ma’lumotlarni e’tiboringizga havola etdik. Ishimizning vazifalarini amalga oshirish jarayonida Guanghonghuaning fonetik xususiyatlarini o‘rganib biz quyidagi xulosalarga keldik.

Guangdonghuada bo‘g‘in boshqa belgilar asosida quriladi: misol uchu burun undoshiga tugaydigan bo‘g‘inlar mavjud (misol uchun “lak”). Kanton shevasining ohanglari ham putonghuanikidan farq qiladi: “Yue”da 5 dan 8 tagacha ohanglar mavjud. Yangi romanlashtirishda 6 ta ohang bor deb aytiladi. Eski romanlashtirishda esa 9 tagacha ohang mavjud bo‘lgan. Ularning bugungi kunga kelib kamayib ketishining sababi bu ba’zi bir ohanglarning qo‘shilib ketishidir. Chunki ular o‘rtasidagi farq unchalik katta bo‘lmagan. Guangdonghuada ayrim fonetik o‘zgarishlar sodir bo‘lmagan, shuning evaziga uning talaffuzi nisbatan an’anaviyroq va bo‘g‘inlar o‘rtasidagi farqni saqlab kelmoqda, Putonghuada esa bo‘g‘inlar qo‘shilib ketgan.

Putonghuada tugallovchi “m” va “n” harflari “ŋ”ga o‘zgargan.

Putonghuada undoshlarning sistemasi Kanton shevasiga nisbatan konservativdir. Ko‘pgina putonghuada mavjud bo‘lgan diftonlar Guangdonghuada yo‘qolib ketgan.

Putonghua hamda Guangdonghua o‘rtasidagi ohanglarning farqliligiga asoslanib quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

Putonghuada mavjud bo‘lgan 1-ohang bilan talaffuz qilinadigan so‘zlarning 90% Guangdonghuada ham 1-ohangda talaffuz qilinadi.

PuTonghuada mavjud bo‘lgan 2-ohang bilan talaffuz qilinadigan so‘zlarning 90% Guangdonghuada 3-ohangda talaffuz qilinadi.

Putonghuada mavjud bo‘lgan 3-ohang bilan talaffuz qilinadigan so‘zlarning 90% Guangdonghuada 2-ohangda talaffuz qilinadi.

Putonghuada mavjud bo'lgan 4-ohang bilan talaffuz qilinadigan soʻzlarning 90% Guangdonghuada yengil ohangda talaffuz qilinadi.

Unlilar va undoshlarning talaffuzida esa quyidagi oʻzgarishlar yuzaga keladi:

Putonghuada “-ao” unlisiga tugab keluvchi 90% soʻzlar, -zh; -ch; -sh; -r undoshlari bilan boshlanadiganlaridan tashqari, Guangdonghuada “-ou” tarzida talaffuz qilinadi;

PuTonghuada “-ou” unlisiga tugab keluvchi 90%soʻzlar, Guangdonghuada “-au” tarzida talaffuz qilinadi.

Shunday qoida ham mavjud: putonghuada “毛” (mao) deb talaffuz qilinuvchi soʻz, Yue Yu da “某” (mou) tarzida talaffuz qilinadi; “头” (tou) tarzida talaffuz qilinadigan soʻz “讨” (tao) tarzida talaffuz qilinadi.

Putonghuada “-iao” unlisi bilan tugagan soʻzlarning 90%, -zh; -ch; -sh; -r undoshlari bilan boshlanib “-ao” unlisi bilan tugagan soʻzlar ham, Yue Yu da “-iu” deb oʻqiladi.

Putonghuada “-iu” unlisi bilan tugagan soʻzlarning 90%, Guangdonghuada “-au” deb oʻqiladi. (Misol uchun “you” – “yau” deb talaffuz qilinadi).

Putonghuada “-ang” unlisi bilan tugagan soʻzlarning 90%, -zh; -ch; -sh; -r undoshlari bilan boshlanuvchilarini ham hisobga olgan holda, Yue Yu da “-ong” tarzida talaffuz qilinadi.

Yuqorida keltirilgan holatlarni kuzatishimiz bilan birga biz yana bir qiziq boʻlgan holatni kuzatishimiz mumkin, yaʼni Guangdonghuada boʻgʻin bitta shengmudan ham iborat boʻlishi mumkin. Talaffuz jarayonida ikki komponentning qoʻshilib ketishi va bir birining ohang yoki talaffuz jihatlarini oʻzlashtirishi holatlari ham kuzatilgan.

Biz bitiruv malakaviy ishimizda Guangdonghuaning fonetik xususiyatlarining umumiy jihatlarini ko‘rib chiqdik. O‘ylaymizki, bitiruv malakaviy ishimiz 广东话 ni o‘rganishni istaydiganlar uchun juda ham qo‘l keladi. Kelajakda xitoy tili bo‘yicha maxsus kurslar va leksikologiya darslarida qo‘llanma vazifasida ishlatiladi deb umid qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari:

1. I. A. Karimov Samarqand viloyati xalq deputatlarining navbatdan tashqari sessiyasida so‘zlagan nutqi 2010 yil, dekabr.

2. Ilmiy adabiyotlar

2.1. O‘zbek va rus tillaridagi adabiyotlar:

2. M.T. Irisqulov. Tilshunoslikka kirish. Toshkent “Yangi asr avlodi” 2009 y.
3. Sh.Shozamonov. Xitoyda til vaziyati. TDSHI 2013.
4. A. A. Karimov. Xitoy tili Grammatikasi. Toshkent “Fan va texnologiya” 2004 y.
5. I.N. Bekmuratov Xitoy tili dialektologiyasi. TDSHI 2010.

2.2. Xorijiy tillardagi adabiyotlar:

6. Янкивер С.Б. Кантонский диалект китайского языка. Москва “Наука” 1987.
7. Янкивер С.Б. Китайская иероглифическая письменность и кантонский диалект. II-конференция по китайскому языкознанию. Москва 1982г.
8. Астрахан Е.Б. и др. Диалекты и национальный язык Китая Москва “НАУКА” 1985 г.
9. Софронов М.В. Китайский язык и китайское общество Москва 1979 г.
10. Завялова О.И. Диалекты китайского языка – Москва “Научная книга” 1996 г.
11. Коротков Н.Н. “Особенности морфологического строения китайского языка” Москва 1968 г.
12. Алексахин А.Н. “Диалект Хакка”(китайский язык). Москва “Наука”, 1987
13. “Вопросы китайской филологии” Москва МГУ 1974 г.
- 14.Зарубежный восток: Языковая ситуация и языковая политика. Справочник. Москва., 1986.

15. Крюков М.В., Переломов Л.С., Софронов С.В., Чебоксаров Н.Н. Древние китайцы в эпоху централизованных империй. Москва 1983г.
16. Брук С.И. население мира, этнодемографический справочных. М; 1982 г.
17. Солнцев В.М. очерки по современному китайскому языку. М; 1957г.
18. Крюков М.В , Переломов Л.С., Сафронов М.В., Чебоксаров М.Н. (древние китайцы в эпоху централизованной империи. М; 1973г.
19. Яхонтов С.Е. Древнекитайский язык. М., 1965.
20. Ахманова О.С. словарь лингвистических терминов. М; 1969.
21. 欧阳觉亚 . 普通话广州话比较与学习 北京 – 中国社会科学出版社 1993 年
OuYang JueYa Guangzhouhua va Putonghuani taqqoslab o‘rganish Pekin.
Xitoy ijtimoiy fanlar nashriyoti. 1993.
22. 李准Li Zhun 汉语方言调查手册 hàn yǔ fāng yán diào chá shǒu cè
(Xitoy shevalarini o‘rganish qo‘llanmasi). 北京 Pekin 1957 年.
23. Ding Shen-Shu va Li Zhun. Xitoy shevalarini organishda qisqacha jadval Pekin 1958.
24. Bai WanZhu 广州方言的 ABB 式 主谓结构 (Guangzhou shevasida ABB shaklidagi predikativ konstruksiyalar) “方言”. 1981.
25. Тань Ао-шуан. Система дана в конгонском диалекте. (экспериментальное исследование) М;1972.
26. Лю Цзинь. Гуандун хуа фанъаш цыхуей (диалектная лексика гуандунских диалектов).- “ юйвень чжиши “ 1955, №12;1956, №1-2.
27. Хань юй фанъянь цыхуей (Лексика диалектов китайского языка). Пекин,1964.
28. Хань юй фан инь цыхуей (Словарь диалектного чтения иероглифов китайского языка). Пекин,1962

29. Хань юй фанъян цыхуй (Лексика диалектов китайского языка). Пекин 1964.
30. Хуан Божун. Гуаджоу хуа буюй биньюй ды цысюй (порядок расположения дополнительного члена и дополнения о гуанджоуском диалекте). Чжунго юйвень. 1959, №6.
31. Хуан Даньчэн. Гуанфу хуа (гуанджоуский диалект). “Юйвень чжиши“ 1954, № 6-6.
32. 俄汉汉俄词典 北京 外语教学与研究出版社 2011年
Ruscha-xitoycha, xitoycha-ruscha lug'at. Pekin. Chet tillarini o'rgatish va tadqiq etish nashriyoti 2011y.
33. 现代汉俄词典 北京 外语教学与研究出版社 2007年
Zamonaviy xitoycha-ruscha lug'at Pekin. Chet tillarini o'rgatish va tadqiq etish nashriyoti 2007y.
34. Whitaker K.P.K Cantonese Sentence Series. London 1954.
35. Oakeley R.H. Rules for Speaking Cantonese. 1953.
36. Cowles R.T. Cantonese speakers dictionary. Hong Kong 1965.

Internet saytlari:

37. Kanton shevasi. http://ru.wikipedia.org/wiki/Кантонский_диалект
38. <http://www.yueyv.com>
39. <http://www.zgyyzx.com>
40. <http://www.520hai.com>